

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS

TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

Ingliz filologiyasi kafedrası

Himoyaga ruxsat etaman

fakultet dekani

NOSIROVA Nilufar

INGLIZ va O`ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING

IFODALANISHI

5A220102-lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. Gadoyeva M.I.

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Ingliz filologiyasi kafedrası

mudiri _____ f.f.n. Z.I.Rasulov

" ____ " ____ 2014

BUXORO-2014

Mundarija

Kirish	3
I - BOB. Maqollarning ifodalanishini lingvistik muammo	
§1.Maqollarning yaratilishi.....	8
§2.Maql, matal, idioma va ularning farqli va umumiy jihatlari.....	14
§3.Maqollarni tarjima qilish muammolari	28
I bob bo'yicha xulosa	
II BOB. O'zbek tilida maqollarning ifodalanishi	
§1.O'zbek tilidagi maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari	38
§2.Maqollarning yondosh hodisalarga (so'z birikmasi, matal, idioma) ga bo'lgan munosabati va til -nutq bo'linishidagi o'rni.42	
§3.Maqollarning ma'noviy-uslubiy qo'llanishi. Maqollarda sinonimiyasi	
§4.Maqollarning uslubiy vazifalari	56
II bob bo'yicha xulosa	
III BOB. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning tasnifi	
§1.Maqollarning ingliz va o'zbek tilida turli mavzularda yoritilishi....	63
§2.Ko'chma ma'noda kelgan maqollarning ingliz va o'zbek tilida berilishi	
§3.O'z ma'nosida kelgan maqollarning ingliz va o'zbek tillarida berilishi	
III bob bo'yicha xulosa	
Umumiy xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

Kirish

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat bo'lgandan keyin xalq-xujaligining hamma sohalarini rivojlantirishga kirishildi.

Tilga e'tibor, elga e'tibor deganlaridek, chet tillarni o'rganishga ham asosiy davlat e'tibori kuchaydi. Oliy va o'rta maktablarda dars soatlari oshdi, qo'shimcha tadbirlar ko'rildi, chet tili o'qitiladigan maktablar, kollej, litseylar ko'paydi va chet ellar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. "Ustoz" jamgarmasi va boshqa tanlovlar asosida yoshlarni chet ellarga yuborish yo'llari ochildi. O'quvchi va o'qituvchilar xorijiy mamlakatlarga borib, o'qib va tajriba orttirib kelmoqdalar.

Hukumatimizning chet tillarni o'qitish haqida qator qarorlari chiqdi. Yurtboshimiz o'z nutqlarida katta urg'u bilan yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga chaqirdi:

"Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda yurtimizda katta e'tibor berilmoqda. Bu ham, albatta bejiz emas, butun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga sheriklarimiz bilan hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir" [1; 9].

Biz, yoshlar oldida chet elga chiqish, chet el yutuqlarini o'z xalq-xo'jaligimizga olib kirish uchun chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini bilishimiz shart. Har qanday xorijiy davlat bilan aloqa til bilan boshlanadi. Chet tillarni shuning uchun ham puxta o'zlashtirish kerak. Chet tillarni mukammal o'zlashtirishning yana bir qulayligi, ilmiy izlanishlar olib borish, u yoki bu materiallarning qayerda, qachon va qanday ishlatilishini bilishda, ish jarayonini qulaylashtiradigan, ya'ni ikki tomonlama tushunishni osonlashtirishdadir. Ingliz tili hammamizga ma'lumki, boy til, uning leksikasi cheksiz keng, sinonim ibora kabilarga boy, ularning qachon qayerdan kirib kolganligini va

qaysi maqsadda ishlatilganligini yaxshi bilish maqsadida biz shu mavzuni tanlaganmiz.

Mavzumizning dolzarbligi shundaki, maqollar har bir millatning mentalitetidan kelib chiqqan holda shaxslarni tarbiyalashda, ularni to'g'ri yo'lga boshlashda muhim o'rin to'tadi, maqollarning ko'pi ko'chma ma'noda ishlatiladi, ularni o'zbek tili maqollari bilan qiyoslab ularning muvofiqligi va farqli jihatlarini o'rganishdir. Ular ma'nosini ochib berish orqali kitobxonlarning dunyoqarashini shakllantirish va so'z boyligini oshirishga erishish mumkin.

Mavzuning o'rganilishi darajasi, ingliz va o'zbek tillarida maqollar bir necha olimlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ulardan biz ishimizga asos qilib olganlarimiz quyidagilar: V.A.Kuninning "Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar" [32], N.A.Afanaseva va boshqalarning "Oral speech practice", "Proverbs and sayings" [8], L.O.Benovichning " Многозначность идиом" [10], V.Dalning " Пословицы русского народа" [21], A.YA.Rojanskiyning " Идиомы и их перевод" [39], Sh.Rahmatullaevning "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" [42], G.Salomovning "Maqol va idiomalarning tarjimasi" [49], T.A.Stefanovichning "Oral speech practice" [51], "O'zbek tilining izohli lug'ati" [59], N.A.Shextmanning "A handbook of English idioms and idiomatic usage" [54], B. Yuldoshyevning Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional -uslubiy xususiyatlari [30] kabi ilmiy asarlaridan foydalandik va ular

32.Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. М., 1984.

8.Afanasyeva N.A va boshqalar. Oral speech practice. Proverbs and sayings. М., 1976

10.Бенович Л.О. Многозначность идиом «иностранный язык в школе» журналы. 1972 №5

21. Даль В. Пословицы русского народа. том I-II, М., 1984

39. Рожанский А.Я. Идиомы и их перевод «иностранный язык в школе» журнал., 1978 №3

42.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati. 1992.

49.Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., "O'qituvchi". 1978

51.Stefanovich T.A. va boshqalar. Oral speech partice. М., 1972

59.O'zbek tilining izoshli lug'ati. 2 tomlik, 1-2 tom, М., 1981.

54. Шехтман Н.А. A handbook of English idioms and idiomatik usage. «Просвещение» Ленинград 1971.

30.Yuldoshyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional -uslubiy xususiyatlari. DDA, Toshkent, 1993, 22-37 b.

ishimizning asosi hisoblanadi.

Ishimizning yangiligi shundan iboratki, ingliz tilidagi maqollar o`zbek tili bilan batafsil qiyoslab, o`z va ko`chma ma`noda kelgan maqollar o`rganilmoqda. Ingliz va o`zbek maqollari qiyoslanib juda kam o`rganilgan. Biz ularning o`xshash va farqli tomonlarini aniqlamoqchimiz. O`zbek tilshunosligida ham xalq maqollari leksik, sintaktik yo`sinda, qisman o`rganilgan bo`lsada, ularning til nutq bo`linishidagi o`rnini, ma`noviy-uslubiy xususiyatlarini aniqlash masalalari muammoligicha qolmoqda. Bunday muammolarni ingliz tilida ham ko`rib chiqishimiz lozim. Demak, har ikki tilda maqollarning xususiyatlari, ahamiyati qo`llanishi haqida bayon qilishimiz kerak.

Ishimizning vazifasi shuki, ingliz va o`zbek tillarida maqollar xalqning ma`naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog`liq ekanini tushuntirish, ularning etimologiyasiga (kelib chiqishiga) e`tiborni qaratish kabilarni yoritish, ularni ikki tilda qiyoslab, o`zbek tilida ma`no jihatdan mos kelishini aniqlash, ekvivalentlarini ko`rsatishdan iborat.

Mazkur maqsadni va vazifalarni bajarish uchun quyidagi vazifalarni bajarishni rejalashtirdik:

- xalq maqollarini ingliz va o`zbek tillarda o`rganilishini o`zlashtirish;
- maqol, matal va idiomalar farqini, kam bo`lsada aniqlab berish;
- maqollardagi ko`p ma`nolilik hodisasini ochib berish;
- ularda sinonimiya hodisasini ko`zatish;
- ingliz tilidagi maqollarga o`zbek tilidagi maqollarning mos kelishi kelmasligini ko`rsatish kabi vazifalarni bajardik.

Tadqiqot ob`ekti. Ingliz va o`zbek tilidagi maqollar bo`yicha nashr qilingan ilmiy asarlar va ularni tarjima qilishga bag`ishlangan tarjima nazariyasi tavsiyalaridir. Ingliz tilidan V.Kunin, N.A. Afanaseva, L.O.Benovich, N.A.Sheyxman, o`zbek tili bo`yicha Sh.Raxmatullaev, M.Sodiqova, M.Abduraximov, X.Berdiyev, R.Rasulov, Sh.Shomaqsudovlar asarlari,

tarjima nazariyasi bo'yicha A.V.Fedorov, G.Salomovlar asarlari asosiy ob'ekt qilib olindi.

Ishimizning amaliy ahamiyati shundaki, ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar xususiyatlari, ahamiyati, kelib chiqishi kabilar yoritiladi va ingliz -o'zbek tilidagi maqollarning o'z va ko'chma ma'noda berilishi batafsil tahlil qilinadi.

Qo'llanish sohasi to'plangan qiyosiy tipologiya, leksikologiya va tarjima nazariyasi fanlari bo'yicha qo'llanmalar tuzishda qo'l keladigan materiallar ishlab chiqildi.

Ilmiy ishning metodologik va ilmiy nazariy asoslari mazkur tadqiqot ishimizga O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari, har xil marosimlarda so'zlagan nutqlari, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi milliy dastur metodologik asos qilib olindi.

Ishimizni yoritishda A.V.Kunin, N.A.Afanashev, L.O.Benovich, Dal, A.YA.Rojanskiy, Sh.Rahmatullayev, G.Salomov, P.A.Stefanovich, A.F.Fedorov, N.A.Sheyxtman asarlari ham nazariy material sifatida asos qilib olindi.

Ishimizning sinalishi (aprobatsiyasi) ilmiy ishimiz mavzusini tanlashda va tasdiqlashda kafedra yigilishida va magistrlik dissertatsiyasi tayyorgarligining borishi haqidagi muhokamasida, hamda universitet anjumanlarida qilingan ma'ruzalar orqali jamoatchilikka etkazilgan.

Ishimizning hajmi va to'zilishi shuki, magistrlik dissertatsiyasi 90 betlik xajmda komp'yuterdan chiqqan bo'lib, u kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob

Maqollarning ifodalanishini o`rganishdagi lingvistik muammolar

1-§ Maqollarning yaratilishi

Xalq o`zining hayoti tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. O`zbek maqollari mavzu jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Ayni choqda ular yaratilishi jihatdan juda qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodini tashkil etadi. Mahmud Qoshg`ariy o`zining «Devonu lug`otit turk» asarida kitobni «hikmatli so`zlar, saj`lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar» bilan bezaganligini aytadi. Haqiqatdan ham, «Devonu lug`otit turk»da uch yuzga yaqin xalq maqollari berilganki, turkiy xalqlarning madaniy me`rosiga voris sifatida har bir o`zbek ular bilan faxrlansa arziydi. Yana shuni ham alohida ta`kidlash kerakki, 80-yillarning oxirlarida O`zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo`yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirilgan. Bu misol ham o`zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini dalillaydi. Hech ikkilanmasdan alohida qayd etish lozimki, bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdan-kam xalqlar ega bo`lishi mumkin. Hayot tajribasi shuni ko`rsatadiki, bironta shoirtabiat inson qattiq ehtirosiga berilgan paytida o`nlab qo`shiq to`qib tashlashi mumkin. Ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalq qalbidan joy olishi uchun o`nlab yillar, ko`p vaqtlar zarur bo`ladi. Ana endi Mahmud Qoshg`ariy turkiy so`zlarning lug`ati yo`nalishida keltirgan uch yuz maqolga va 13 mingdan ortiq bu janr namunalariga baho berib ko`raylik. Ma`lum bo`ladiki, bu qadar soni ko`p va badiiy mukammal xalq hikmatli so`zlarini irod qilish faqat dono, zukko, har bir hayot voqeasini mulohaza laboratoriyasidan o`tkaza olgan ajdodlarimizgagina nasib etishi mumkin.

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli soʻzlar majmuasidir. Maqollarda ifodalanishi lozim boʻlgan fikr va mazmun keng qamrovli boʻladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea roʻy bergan va bu voqea oʻta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vaqili tomonidan kuzatishiga sabab boʻlgan, «Devonu lugʻotit turk»dan olingan quyidagi misollarga murojaat qilaylik:

Besh qoʻl barobar emas,
Hoʻkizning oyogʻi boʻlguncha, buzoqning boshi boʻlgan yaxshiroq,
Ot kuragidagi yagir, bolalariga meros boʻlib qoladi,
Quduqda suv bor, ammo it burni tegmaydi.

Maʼlum boʻladiki, yoʻqoridagi har bir misolni yillar davomida tajribadan oʻtgan, uning haq ekanligiga ishonch hosil qilingan, badiiy jihatdan mukammallashib borgan namuna sifatida qabul qilish mumkin. «Devonu lugʻotit turk»da «savlashmoq» soʻzi berilgan. Buning otalar soʻzini eslamok maʼnosini anglatishi aytiladi. Taxmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «sav» deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «masal» tarzida beriladi: «masaldurkim—oʻyqu oʻlimdir». «Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qoʻllanib kelingani maʼlum. Oʻtgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol soʻzi tez-tez uchray boshlaydi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qoʻllandi.

Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida adabiyotshunoslar, folʼklorshunoslar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, bugungi kunimizdan deyarli ming yil avval Mahmud Qoshgʻariy oʻzining «Devonu lugʻotit turk» asarida koʻplab maqollardan namunalar keltirdi va xalqimiz ijodida maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini isbotlab berdi. Olimlar qadimgi shohlardan Abbos Safoviy amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida maʼlum ot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kunda yoʻqolgan. Utgan asrda oʻnlab maqollar tuplami eʼlon qilindi. «Oʻzbekcha otalar soʻzi» (1924), «Maqollar va hikmatli soʻzlar» (1939), «Otalar soʻzi—aqlning

ko`zi» (1947), «O`zbek xalq maqollari» (1978), «O`zbek xalq maqollari» (2 jildlik, 1987—1988) kabilar shular jumlasidandir. Ularni to`plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G`ozi Olim Yunusov, Gulom Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Xusainova, G`ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To`ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Askar Musaqllov, R. Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo`shdilar.

Maqol arab tilidagi «kavlun»dan olingan bo`lib so`z tushunchasini anglatadi. Demak, maqol atamasini hikmatli so`z ma`nosida qabul qilish mumkin.

Xalq og`zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo`lgan munosabati aks etganini alohida ta`kidlaydilar. Haqiqatan ham, agar o`zbek maqollari namunalariga murojaat qilsak, bu fikr juda to`g`ri ekaniga ishonchimiz komil bo`ladi. «Tulki o`z uyasiga qarab hursa, qo`tir bo`ladi» maqolida ajdodlarimizning o`z vataniga bo`lgan hurmati, vatanni talash emas, himoya qilish kerakligi haqidagi fikri aks etgan. «Kim tutunni ko`zg`otsa, o`ziga tutaydi» maqolida esa har bir ishni hamjihatlik bilan amalga oshirish kerakligi ta`kidlanadi. «Vaqt belgisi ilmdir» misolida xalqimizning minglab yillar davomida ilmga bo`lgan munosabati o`z ifodasini topgan. «Shoshqaloq pashsha, sutga tushadi»da har bir ishni mulohaza bilan o`ylab bajarish nazarda tutiladi. «Til bilan bog`langan, tish bilan ochilmas» maqolida bir tomondan vafodorlikka chaqirish mazmuni aks etgan bo`lsa, ikkinchi tomondan odamlar, oilalar, mamlakatlar o`rtasidagi nizolar muzokara yuritish yo`li bilan hal etilishi kerakligi uqtiriladi. Bu maqollarning har birida hayot-mamot masalalari, insonning tabiati, bag`ri keng odamgina el orasida hurmatga sazovor bo`lishi qayta-qayta uqtirilgandir.

Tajriba shuni ko`rsatadiki, maqolning el orasida keng tarqalishi, ularda haqiqat ifodasi bilan aloqadordir. Agar maishiy hayotda biron narsa predmetning

ishlatilishi to'xtatilsa, ma'lum muddatdan so'ng ana shu narsa nomi ishtirokidagi maqol sekin-asta iste'moldan chiqadi. Jumladan, «Choriq», «Xoqon» kabi so'zlar tilimizda kam ishlatilgani sababli bularning ishtiroqidagi maqollar ham yo'qolib ketgan. Yoki O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida «Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqoli keng tarqalgandir. Ammo Xorazm xududlarida yashaydigan yurtdoshlarimiz bu maqolni o'z ma'nosida ishlatmaydilar. Chunki Xorazmda yer osti suvlari yer qatlamiga juda yaqin joylashgashshgi tufayli bu viloyatda dehdonchilik tajribasida kuzda ekin maydonlari haydalmaydi.

Ma'lum bo'ladiki, xalqimiz tomonidan qo'llanadigan har bir maqol hayot tajribasidan o'tgan, zamonlar sinoviga bardosh bergan so'z san'ati namunasidir.

Maqol, matal va idiomalar xalq-aql idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa-voqealarga munosabati demakdir. Dunyodagi hamma xalqlarning tillarida ham do'stlik, birodarlik, hamjihatlik va hamkorlik to'g'risida juda ko'p maqollarni uchratganmiz. Jumladan, Shark xalqlarida ham do'stlik to'g'risida ajoyib maqollar yaratilgan. Boshqird maqoli "Xalqlarning do'stligi -ularning boyligidir" deb tasdiq qiladi. Zotan, do'stlikdan ham ortiq, davlat, boylik bo'lishi mumkinmi! Do'stlik bebaho boylikdir.

Gruzinlar "Daraxt tomiri bilan, odam do'stlari bilan baquvvatdir" deydilar.

Tatar maqollarida esa "Qushning qushi qanotida, odamning qushi do'stlikdadir" degan g'oya ilgari suriladi. Demak, daraxt tomirsiz yashay olmaganidek, qush qanotsiz ucholmaganiday, odam ham do'stsiz yashay olmaydi. Jamiyatdan tamomila ajralgan, o'z qobig'iga biqinib yashaydigan qandaydir yakka shaxslar individlarning bo'lishi mumkin emas.

O'zbeklarda "Do'sting uchun zahar ich" degan maqol bor. Bu maqolga amal qilishning ajoyib namunalarini biz urush yillari, Afg'on urushi yillari yoki O'zbekistan Respublikasi mustaqil bo'lgandan keyin Vatanimizga tajovuz qilib,

suqilib kirmoqchi bo'lgan unsurlarni bartaraf qilish uchun mamlakatimiz ichidagi millatlarning bir tan, bir jon bo'lib kirishganlarini ko'rdik

Hozirgi paytda davlatimizning kelgusida tinch totuv yashashi va rivojlanishi uchun qanchadan-qancha tashkilotlarga a'zo bo'lishi: Kollektiv xavfsizlik, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (SNG), SHOS (Rossiya, Xitoy, O'zbekistan, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston) kabilar do'stlikni mustahkamlash va bir-birini quvvatlash maqsadida tashkil bo'lgan qo'shma tashkilotlardir.

Shunisi qizikki, biz o'zbek, tojik, xitoy va bir qanchaa xalqlarning tillarida ayni bir xil bo'lgan maqol va matallarni uchratamiz.

Go'yo bu maqollarni xalqlar bir-birlari bilan "til biriktirib" yaratganday tuyuladi.

Tuva xalqda "Ming laning (pul) bo'lmasin, yuzta do'sting bo'lsin" degan maqol bor. Holbuki, o'zbeklar ham "yuz so'ming bo'lmasin, yuzta do'sting bo'lsin" deb aytadilar. Xuddi shu maqol rus tilida ham bor.

Qadimgi hind tilida "Do'st -kulfatda, botir jangda, sofdillik qarz olganda sinaladi" deyilsa, o'zbeklarda "Do'st -do'stni qulfatda sinar" deb ataydilar.

Biroq katta kamchiligidan qat'iy nazar, har bir xalqda boshqa xalqlarda bo'lmagan o'z maqol va matallarga ega.

Turklarda "Do'sting otgan tosh bosh yormaydi" degan maqol mashhur. Ammo o'zbeklarda aksincha begonalar otgan toshdan, do'st otgan tosh qattiq tegadi (yoki o'zingniki o'zagingni chiqaradi) degan maqollar mavjud. Malaya xalqining tilida: Arap do'sting durust bo'lsa, ko'zoynak chiqarar" degan maqol bor. Yuzaki qaraganda, do'st bilan ko'zoynakning bir-biriga hech qanday aloqasi yo'qday tuyuladi. Amalda esa uning zamirida do'st kishi uchun ko'zoynak emas, balki ko'zning o'zidir degan ma'no yotadi.

Tojik, turkman va boshqa xalqlarda esa do'st oynaga o'xshatiladi: "Do'st-do'stning oynasi". Xullas, suvni kesib bo'lmaganidek, yaxshi do'stlarni ham bir-

biridan ajratib bo'lmaydi. Xalqning kuchi do'stlikda va birlikdadir. Birlashgan, do'stlashgan xalqni yenga oladigan kuch yo'q.

O'zbek tilida "eshak minganning oyogi tinmas, ikki xotinlikning qulog'i tinmas" degan maqol bor. Aytish mumkinki, bu maqol eshak asosiy tgapSPORT vositasi xotin ustiga xotin olish esa oddiy axloq normasi bo'lgan bir davrda kelib chiqqandir. Davrimizning mazmuni uchun xarakterli va tipik bo'lmagan ana shu narsa va hodisalar to'g'risida uzoq utmishda to'qilgan maqollar insonda dum o'simtasi "qoldiq" bo'lib kelayotganidek, ular ham tilimizdagi qandaydir "atavizm hodisasi"¹ emasmikan? Shunisi qiziqki, ehtimol, eshakni namuna uchun faqat hayvonot bog'igagina qo'yganimizda, xotin ustiga xotin olishdek jirkanch sarqitga batamom barham berishgan bir vaqtlarda ham "eshak minganning oyog'i tinmas" degan maqol tilimizda qolar.

Lekin unda bu maqol ko'chma ma'no kasb qilib, butunlay boshqa voqea - hodisalarga nisbatangina ishlatiladigan bo'lar. Qadim zamonda xudo odamni tuproqdan yasagan degan diniy e'tiqodga ishonar edilar. Hozir bo'lsa bu gapga yo ishonadi, yoki ishonqiramaydi. Shunga qaramay bir -biriga juda o'xshab ketadigan ikki kishini ko'rganimizda: "Tuprog'i bir joydan olinganday" deb kuyamiz. Lekin xudo shu ikki odamni "yaratayotganida" ularning tuprog'ini bir joydan "olganligiga" ishonganimizdan shunday deymizmi? Aslo! Zinhor, bunday emas. Demak o'z e'tiqodimizga tamom qarama-qarshi mazmunni tashiydigan gaplarni ham ishlataverar ekanmiz, bundan faqat shu iboralarning shakli, obrazli asosdagina foydalanamiz, xolos.

Biz yomon odamlar haqida gapirganimizda "mol olasi tashqarisida, odam olasi ichida" deymiz. Bu maqolning qachon kelib chiqqanini hech kim bilmaydi, lekin shunisi aniqki, u XI asrdan ham oldin paydo bo'lgan, chunki XI asrning yirik tilshunosi Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu log'otit turk" asariga bu maqolni kiritgan. Demak, bu maqolning yoshi ming yilga teng. Ming yillar mobaynida qancha suvlar oqib siz bilan bizga o'xshagan necha-necha avlodlar ko'rgan tollar kesilib ketgan-u, lekin bu maqol hamon saqlanib qolmoqda.

2-§. Maqol, matal, idioma va ularning farqli va o`zhash jihatlar

Maqol xalqning pand-nasihati, ma`naviy axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol xalq idrokining mahsuli, uning xukmi, ko`p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir- birlari bilan muomalada bo`lish jarayonida tug`iladi. Xalq maqoli xalqning mulkidir, masalan, maqol qayg`usi -xalq qayg`usi, maqol gazabi- xalq gazabi, maqol kulgisi -xalq kulgisi va xalq kinoyasi demakdir.

Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ishlatmagan bironta til yo`q. Maqollar borki, "shirin" pand-nasihati qiladi, aql o`rgatadi, mard va botir bo`lishga da`vat etadi, "achchiq" aybingizni dangal yuzingizga aytadi.

Maqol xalq orasida kun sayin tug`ilib turganidek, ota-bobolar so`zi sifati avlodlardan avlodlarga meros bo`lib o`tadi. Bu merosni xalq ko`z qorachig`iday saqlaydi. Har bir maqol ham ma`no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o`ziga xos xususiyatga ega. Lekin shunga qaramay, hamma maqollarda ham qandaydir bir umumiylik bor.

Avvalo maqol zamirida -xalq hikmati yotadi. "Axmoqqa javob -sukut" deydi o`zbeklar; ruslar esa "durak varchit, umniy molchit" deb aytadilar, Bu maqolning qanday hikmati bor? Axir bir axmoq haqorat qilaversa, bunday paytda jim turib bo`ladimi? Ha, jim turib bo`ladi, -deydi maqol. Nodon odam bilan aytishish oson, biroq chidam bilan sukut saklash har kimning ham qo`lidan kelmaydi. Ikkinchisidan, axmoqning haqoratlariga haqorat bilan javob qilish -sharmanda bo`lish, ya`ni o`zing ham axmod bo`lding demakdir. Aytuvchi axmoq bo`lsa, tinglovchi dono bo`lishi kerak deydi maqol. Binobarin, axmoqqa qarshi eng dono javob -sukut qilishdir.

O`zbeklarda "nodonga so`zlagan essiz so`zish, o`likka yig`lagan esiz ko`zim" degan maqol bor. Ruslarda "duraku uchit -chto myortvogo lechit" deyilar. Qanchalik zo`r berib yig`laganing bilan o`lgan odam qayta

tirilmaganidek, nodon odamga qanchalik aql urgatmagin, u dono bo`lmaydi. Bu maqolning ruscha muqobili ham xuddi shunday fikrni olg`a suradi: "axmoqqa aql o`rgatish o`likni davolash bilan barobar". Ko`rinadiki, bir qancha oddiy so`z bilan ta`bir qilinadigan chuqur axloqiy g`oya qisqa, ixcham bir qolip shakliga kirgan. Demak, shakl ixchamligi maqollarga xos ikkinchi belgidir.

Maqollar tarkibidagi so`zlarning bir-biriga qofiyalanib kelishi va allitiratsiya (so`z tarkibidagi tovushlarning uyg`unlashuvi, takror kelishi), qarama-qarshi so`zlarning birikishi ham maqollarning shakl xususiyatlariga xos belgilaridardir. Masalan, "oy tunda kerak, aql kunda kerak", "kun kurmagan kun kursa, kunduz kuni chiroq yoqar".

Ko`pincha maqollarga xos uchinchi belgi ularning majoziy ma`noda (ko`chma ma`noda) ishlatilishidir. Masalan, "daraxt bir erda ko`karadi".

Maqol turmushda sinalgan, ma`lum ezgu, tugal, umumiy ma`no anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Matallarni bizda xalq jonli nutqning bir kategoriyasi deb e`tirof qilish aniq bo`lmay kelganligidan, ularni ma`nosiga qarab klassifikatsiya qilish masalasi ham maxsus o`rganilishi lozim.

Matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq oborotlaridir. Matal so`zlovchining o`z nutqi zazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osongina saqlanib qoladi. Shuni aytish kerakki, maqol va matallarda qandaydir bir umumiylik bor. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning har ikkalasi ham nutq ta`sirchanligini o`shirish, fikrni tayyor nutq formulalari bilan ifodalash va uni mazmundor qilish niyatida ishlatiladi. Shuning uchun maqol bilan matalni bir-biridan farqlash ancha qiyin. Lekin tugal fikrni bevosita ifodalovchi maqollardan matallarni farqlamoq kerak. Matal aytilmoqchi bo`lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko`chma ma`noli sodda jumla bo`lib, unda xulosa bo`lmaydi, balki uning o`zi bilan xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal "u axmoq odam" deyish o`rniga - "uning

bir qaynovi past" deydi; "Ular bir-biriga juda o`xshaydi" deyish o`rniga - "ular bir olmaning ikki pallasi" deb ataydi.

Fikrni obrazli qilib ifodalovchi "bir qaynovi past", "bir olmaning ikki pallasi" birikmalarini maqol deb bo`lmaydi.

Idioma. Rus va boshqa Evropa tillaridan turli adabiyotlarda ko`pincha idioma bilan maqol va matallar farq qilinmaydi, umuman, ko`chma ma`noda ishlatiladigan jami obrazli ifodalar idioma jumlasiga kiritilgan edi.

Chunki akademik V.V.Vinogradovning ko`rsatishicha "idioma", "idiomatizm" terminlari G`arbiy Evropa tillarida 400 yildan buyon ishlatilib kelinganiga qaramay, hozirgacha ularning hamma olimlar e`tirof etgan yagona ta`rifi yo`q. V.V.Vinogradov katta frazeologik boylikning faqat bir qismi - frazeologik chatishmalarni idioma deb atashni taklif qiladi [19;45]. A.Kuninning ko`rsatishicha, idioma atamasini dastlab adabiyotshunoslikka doyr bir asarda ishlatilgan [33].

Idioma deb so`zlar lug`atida shunday ta`rif berilgan:

"Idioma" (yunoncha idioma -o`ziga xos ibora) muayyan tilga xos, unga o`zlashib ketgan va boshqa tilga so`zma-so`z tarjima qilib bo`lmaydigan o`ziga xos iborasi sifatida ta`riflanadi.

Adabiyot ensiklopediyasida, prof. D.N.Ushakov taxririda nashr qilingan rus tilining izohli lug`atida, V.Dal lug`atida va boshqa bir qanchaa darsliklarda ham "idioma" so`ziga shunday yoki shunga o`xshash ta`rif berilgan.

A.Kuninning "Ingliz tilining idiomatik iboralari" nomli asarida va boshqa bir qanchaa kitoblarida "idioma" atamasiga: "ma`nosi tarkibidagi so`zlar mazmunidan bevosita anglashilmaydigan iboraga idiomatik ibora deyiladi" degan boshqacha ta`rifni ham uchratamiz [32;45]. Agar bu ta`riflarning mazmunini talqin qilinsa, idiomaga xos quyidagi belgilar namoyon bo`ladi:

19.Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии, как лингвистической дисциплины. Ленинградской университет, 1976.

33.Кунин А.В. Английская идиоматические выражения, уч. Пед. Из. М., 1984.

1) u faqat ayni tilning o'zigagina xos, demak, boshqa tillarda xuddi shunday idiomalar yo'q

2) uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi;

3) uning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning mazmunidan anglashilmaydi.

Ana shunday sermazmun va muhim ishlardan biri A.YA.Rojanskiyning "idiomalar va ularni tarjima qilish" nomli maqolasidir [39].

Avvalo bir tildan ikkinchi tilga so'zma so'z tarjima qilib bo'lmasligini idiomasiining ta'rif uchun kriteriya (ulchovi) qilib olish to'g'ri bo'lmaydi, chunki:

1) idiomalargina emas, balki juda ko'p "oddiy"- obrazli so'z birikmalar borki, ularni ham boshqa tilga aynan tarjima qilib bo'lmaydi;

2) umuman, bir til hodisasini ta'riflarida uni boshqa tilga tarjima qilib bo'lish -bo'lmasligigagina tayanish to'g'ri emas;

3) idiomalarni so'zma-so'z talqin qilish ularni boshqa tilga tarjima qilgandagina emas, balki shu tilning o'ziga "tarjima" qilganda ham hech qanday ma'no bermaydi;

4) nihoyat shunday iboralar borki, ularni boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilish mumkin.

A.Ya.Rojanskiy idiomalarning quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatadi:

I. Birikmaning barqarorligi.

1) idiomalar tarkibidagi hozir ishlatilmaydigan, ma'nosi ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan, allaqachonlar iste'moldan chiqib ketgan so'zlarning yoxud eski grammatik shakllarining saqlanib qolganligi;

2) juda qadim zamonlarda mashhur bo'lgan afsonalarning mazmunidan kelib chiqqanligi;

3) ko'pgina idiomalarning diniy mazmunda bo'lishi;

4) tarixiy voqealarni aks ettirish hamda yaxlit va ixcham shaklda bo'lishi

ularning barqarorligini isbotlaydi.

II. Birikmaning majoziy ma`noli ekanligi.

Masalan, "oyoq uzatmoq" birikmasi kishining vafot qilganligini bildirar ekan, demak bu ma`no uning tarkibidagi so`zlarning mazmunidan kelib chiqayotganligidan emas, balki shu birikmalarning ko`chma ma`noda ishlatilayotganidan deb bilmoq kerak. Zotan, u to`g`ri ma`noda ham qo`llanishi mumkin.

III. Birikmaning semantik butunligi.

Buni shundan ham bilish mumkinki, semantik tahlilda idioma bir gan bo`lagi vazifasida keladi. Idioma ma`no tomonidan so`z shaklan ko`pincha birikma bo`lib keladi. Idioma -shaklan bo`laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so`zlarning to`g`ri va konkret ma`nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko`chma ma`no anglatuvchi barqaror so`z birikmasidir [28].

Bu tipdagi idiomatik iboralarni boshqa tilga birikma tarkibidagi so`zlarning to`g`ri ma`nosi bilan tarjima qilinsa, ko`pincha tushunarli bo`lmaganday, hatto ayni tilning o`zida ham ularni to`g`ri ma`noda talqin qilish, ya`ni idiomatik birikamani erkin so`z birikmasi deb talqin qilish tushunmovchilikka sabab bo`ladi.

Idiomatik ibogapi maqol bilan qiyos qilinsa, uning o`ziga xos tomonlari ko`rinadi;

1. Maqol obrazli mazmunga ega bo`lgan gapdir, uni sintaktik bo`laklarga ajratish mumkin. Biroq, idioma barqaror leksik butunlik bo`lib, uni na semantik jihatdan, na sintaktik jihatdan bo`laklarga ajratib bo`lmaydi. "Tig` yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas" maqolini sintaktik tahlil qilaylik. Bunda ega va kesim mavjud bo`lgan ikki gap bor.

Birinchi gap: tig` yarasi tuzalar, tig` yarasi -ega; tuzalar -kesim. Ikkinchi gap: til yarasi tuzalmas; til yarasi -ega, tuzalmas -kesim.

28. Ismatullayev M. Inglizcha maqol, matal va idiomalar. "O`qituvchi", 1979.

Ammo "qo'ltig'idan tarvuzi tushdi" idiomasini bunday tahlil va talqin qilib bo'lmaydi.

Yuzaki qaraganda: tarvuzi -ega, tushdi -kesim; qo'ltig'idan -tuldiruvchi. Lekin bunday tahlil bema'nolikka olib keladi, chunki avvalo, grammatik tahlil qilish uchun berilgan savolning o'zi o'rinli bo'lib qoladi, ya'ni:

- Qo'ltigidan nimasi tushdi? -deyilsa; -tarvuzi tushdi, -deb javob berishga to'g'ri keladi. Holbuki bu shunday idiomalarki, unda odamning qo'ltig'idan faqat tarvuzi, (qovuni yoki oshqovog'i emas) tushadi! Boshqacha aytganda, idioma bo'laklarga ajralmaydigan yaxlit birikmadir,

Chunonchi, "u qo'ltig'idan tarvuzi tushib, uyiga qaytdi" deganda; u -ega, uyiga qaytdi - kesim, qo'ltig'idan tarvuzi tushib -hol.

2. Maqol va idioma mazmuni bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, maqol turmushda sinalgan, ma'lum ezgu, tugal, umumiy ma'no anglatuvchi, ixcham bir shaklga kirib qolgan xalq hikmati bo'lsa, idioma faqat ko'chma ma'noda ishlatiladigan barqaror so'z birikmasidir. Boshqacha qilib aytganda, iidomada hech qanday xalq hikmati yo'q. Dindan chiqish u yoqda tursin, unga qarshi sal til tekkizgan odamlar S.Ayniy kabi orqasiga yetmish bosh kaltak yegan bir sharoitda "dindan chiqsang ham-eldan chiqma" maqolining xalq og'zaki ishlatilishining o'zi katta hikmat emasmi? Ammo, "Adhamning og'zi qulog'ida" deganda qanday hikmat bor? Maqolda tugal bo'lgan bir fikr bayon qilinadi. Unda bosh bo'laklar va ayrim ikkinchi darajali bo'laklar mavjud bo'ladi [49]. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor F.Salomov maqol, matal va idiomalarning bir-biridan farqini yanada oydinlashtirib ko'rsatish uchun tablitsa tuzib, rus tilidagi maqol, matal va idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilib bergan. Har bir bo'lagi uchun to'qqiztadan gap olgan, hammasi 27 ta ruscha frazeologiya ularning hammasi o'zbek tiliga tarjima qilingan.

49. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. T., "O'qituvchi". 1978

Bu jadvalni biz ishimizda ko`rsatamiz.

	Пословицы	Maqol
	Rus tilida	O`zbek tilida
1.	Ворон ворону глаз не выключет	Qarg`a qarg`aning ko`zini cho`qimas
2.	Ближнего соломка лучше дальнего солнца	Uzoqning donidan yaqinning somonini yaxshi.
3.	Рысь пестра сверху, а человек луков изнутри	Mol olasi tashqarisida, odam olasi ichida.
4.	От лося -лосята, от свиньи -поросята	Otadan o`gil, moxovdan nevara
5.	Кошку бьют, невестка навятки дают	Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit.
6.	Кому пироги и пышки кому синяки и шишки	Holvani hokim yer, kaltakni yetim.
7.	Большому кораблю большое плавание	Katta kemaga katta safar munosib
8.	Одна паршивая овца вся стадо портит	Tirroqi buzoq podani bulg`ar
9.	Ум не в бороде, а в голове	Aql yoshda emas, boshda

Поговорка -matal

	Rus tilida	O`zbek tilida
1	Как мёртвому припарки	So`qir ko`zga surma
2	Плясать по чужую дудку	Birovning nog`orasiga o`ynamoq
3	Капля в море	Dengizdan tomchi
4.	Как корове седло	Sigirga to`kim urganday
5.	Кожа до кости	Terisi suyagiga yopishgan
6.	Поджечь хвост	Dumini qismoq
7.	Живой труп	Tirik murda
8.	Побледнел как скатерть	Dokaday oqargan
9.	Молоко на губах не обсохло	Ona suti og`zidan ketmagan

Idioma		-idioma
	Rus tilida	O`zbek tilida
1.	Потянуть ноги	Oyoq uzatmoq
2.	Не хватает пороху	Bir qaynovi past
3.	Ломать голову	Bosh qotirmoq
4.	Дело в шляпе	Ishlar besh
5.	Без ножа зарежет	Pichoqsiz so`ymoq
6.	На седьмом небе	Boshi osmonda
7.	Днём с огнём не найти	Kunduz kuni chiroq yoqib topolmaysan
8.	Сулит золотые горы	Puch yong`oq bilan qo`ynini tuldirmoq
9.	И в ус не дует	Parvoyi falak

Matallar

1. A burnt child dreads the fire. Sutdan og`zi kuygan, qatiqni ham puflab ichar.
2. Birds of feather flock together. O`xshatmasdan uchratmas. (Kur ko`rni qorong`uda topar)
3. East or West, home is best. O`z uying -ulan to`shaging.
4. Short accounts make long friends. X, isobli do`st ajaralmas.
5. The first wealth is health. Sog`liging -boylicing. i
6. There is no place like home. O`z uying –o`lan to`shaging.
7. Too many cooks spoil the broth. Cho`pon ko`p bo`lsa, qo`y harom o`ladi.
8. Walls have ears. Devorning ham qulog`i bor.
9. Where there is a will there is a way. Xohish bor joyda o`quv ham bor.

Idiomalar

1. To act behind one's back. Zimdan harakat qilmoq.
2. To be at sea. O`zini yo`qotmoq.
3. To be all Greek to somebody. Hech xabarsiz bo`lmoq.
Ex: It is all Greek to me. I cannot understand it.
4. To be born with silver spoon in one's mouth. Kumush qoshiq bilan tug`ilmoq (boy oilada tugilmoq)
5. To be fed to the teeth. Juda to`q bo`lmoq.
6. To be on the high horse. Manmansirab ketmoq.
7. To beat about the bush. Achchiq aytishdan qochmoq.
8. To break the ice. Boshlab bermoq.
9. To burn daylight. Kunduz kuni chiroq yoqmoq. (kuchni bekorga sarf qilmoq)
10. To buy for a long. Suv tekinga sotib olmoq.
11. To catch red handed. Jinoyat ustida ushlamoq.
12. To come true. Amalga oshirmoq.

13. To carry for the moon. Oyni olib ber deb talab qilmoq.
14. To die game. Qahramonlarcha halok bo`lmoq.
15. To do something like a bird. Jon dili bilan bajarmoq.
16. To dog the footsteps of somebody. Izma-iz bormoq.
17. To enter a head. Esga tushmoq.
18. To fight to the last. So`nggi kunigacha kurashmoq.
19. To get off with a whole skin. Suvdan quruq chiqmoq.
20. To give a day a bad name and hang him. Tuhmat qilmoq.
21. To have a finger in the pie. Biror ishda qo`li bor bo`lmoq.
22. To have a good command of the language. Tilni yaxshi egallamoq.
23. To hit bellow the belt. Xiyonat qilmoq.
24. To hold water. Tanqidga chidamoq
25. To keep body and soul together. Zo`rg`a kun kechirmoq.
26. White night. Uyqusiz tun.
27. War to the knife. Qirg`in urushi.
28. The closing speech. Yakuniy so`z.
29. Rain or shine. Tosh yog`sa ham.
30. In deep water. Qiyin ahvolda

Sinonimli idiomalar

1. Back and forth.

Back words and forwards

to and fro

up and down

Tarjimasi: u yoqdan bu yoqqa (yurish)

Masalan: The professor' s eyebrows and beard twilched. He turned away and graced back and forth. (N.Shextman 6)

2. Occur to smb Cross smb's mind

Flash into (through) one's mind

Enter one's head

Dawn (flesh) on somebody

Tarjimasi: esiga kelmoq.

Slip from somebody's mind

Slip one's memory

Tarjimasi: viskochit iz golovi -esidan chiqmoq.

3. at a glance At first sight

On the face of it

»

At (on) sight

Tarjimasi: bir ko`rishdan

4. To get married

Take for better for worse

Tarjimasi: turmushga chiqmoq.

5. At any cost

At all cost

By all means

At any rate

In any case

Tarjimasi: albatta

6. Far from it

Not a bit of

By no means

Not any price

Not in the least

Tarjimasi: Hech qachon bo`lmaydi.

7. Keep mum (silent)

Mum's the word

Hold one's peace

Not to breathe a word

Shut up.

Tarjimasi: Jim turmoq

8. Put one's foot against

Take stand against

Let one's face against

Tarjimasi: Keskin qarshilik ko`rsatmoq

9. in rain

to no purpose

Tarjimasi: Bekorga

10. At sea

At one's wits' end

At a loss

At sixes and sevens

Tarjimasi: Boshi berk ko`chaga kirib qolmoq, tushunarsiz bo`lmoq. 11.To
take leave of one's senses

To lose one's head (mind)

To be out of one's mind

Go off one's nut (head)

Be off one's chump

Tarjimasi: Aqldan ozmoq.

12. End (close) one's days

Pass away

Rick the bucket

Breathe one's last (breath)

Go west

Drop dead

Go the way of all flesh

Go to Davy gone's locker

Tarjimasi: o`lmoq.

13. Make a fool of oneself

Act the goat

Play the fool

Tarjimasi: axmoq bo`lmoq

14. At bay

Ill at ease

Out of one's element In deep water

In (a) tight corner

Tarjimasi: xavf xatarda qolmoq

15. Tooth and nail Hammer and tongs With might and main

Tarjimasi: joni boricha (harakat qilmoq)

16. Every man back of them

One and all

The whole caboodle

All and sundry

Tarjimasi: hamma bir tan, bir jon bo`lib...

17. Be badly off

Be poor as a church nouse

Be hard up

Keep the wolf from the door

Be in Queer Street

Be in low water

Tarjimasi: qashshoq bo`lmoq

Jonli tilda maqol, matal va hatto idiomalar ham bir biridan farq qilinmay, qisqacha "maqol" deb yuritiladi. Biroq amalda maqol, matal va idiomalar bir-biridan teskari fikr aytilgan. Shuning uchun ilmiy adabiyotda ko`chma ma`noli bunday birikmalarning rus tilida "poslovitsa", "pogovorka" va dunyodagi ko`pgina tillarda "idioma" deb ataluvchi kategoriyalarning hammasi bor. Darhaqiqat, olimlarning ko`rsatilishicha. tillardan tillarga faqat ayrim so`z va

terminlargina emas, balki ko'pgina maqol, matal va idiomatik iboralar ham tarjima tufayli asta-sekin kirib kelar ekan. Masalan, A.Ya.Rojanskiyning yozishicha, rus tilidagi "otdat serdse", "otkrivat serdse", "otkrivat dushu" idiomalari bir vaqtlar A.S.Pushkin tomonidan kalka yo'li bilan fransuz tilidan tarjima qilingan. ("Evgeniy Onegin"da) va hatto ruscha "lomat golovu" idiomasi ham se casser tete sichden idiomasi ham aniq tarjimasidir. A.Kuninning ko'rsatishicha "pir galabasi" "prokust lojasi" va boshqa idiomalarda ham ishlatiladi [32]. Shuningdek, "Axil tovon", "xusumat olmasi", "avgey oshxonasi", "prometey olovi" idiomalari ham internaional idiomalar hisoblanadi.

Rus tilidagi "vo gde sobaka zarito" idiomatik birikmasi nemischa "da ist der hund begraben", "igra ne stoit svech" idiomasi esa fransuzcha "le jen nen vaut nos chendelle" iborasining aniq tarjimalaridir.

"Proxodit krasnoy nityu" -nemis tilidan, "ne v svoey tarelke" - fransuz tilidan qabul qilingan.

O'zbek tiliga ham rus tilidan va u orqali dunyodagi boshqa tillardan aniq tarjima natijasida "pir galabasi", "axil tovon", "prometey olovi", "amerikani ochmoq", "xitoy devori", "bo'ridan eshagi", "xusumat olmasi", "g'alvir bilan suv tashimoq", "hovonchada suv yanchmoq", "barmoq orasidan qaramoq", "qizil ip bo'lib o'tmoq" kabi o'nlab idiomatik iboralar asta-sekin kirib keldi va kirib kelmoqda.

Biroq idiomatik iboralarni aniq tarjima qilish mumkin ekanligidan, ularni umuman xijjalab tarjima qilish kerak ekan degan xulosa kelib chiqmasligi darkor. Aksincha, aniq tarjima qilib bo'ladigan idiomalar juda kam sonni tashkil qiladi.

Haqiqatda esa, juda ko'p idiomalar borki, ular xijjalab tarjima qilinsa, chindan ham, bema'ni so'z uyumlari hosil bo'ladi, xolos.

32.Кунин А.В. Английская идиоматические выражения, уч. Пед. Из. М., 1984.

Masalan, ruscha "И в у с не дует" idiomasini "muylaviga ham puflamaydi" deb agdarib bo'lmaydi (bizda uning muqobili bor -"parvoyi falak"); lotincha "boshdan oxirigacha" ma'nodagi abovo usque ad molla idiomasi mazmuni "tuxumdan olmagacha" demakdir.

Rimliklarning birinchi ovqati tuxum bo'lib, eng oxirida olma berilar ekan.

Biz yuqorida ingliz tilining o'ziga xos bo'lgan maqol, matal va idiomalarni ko'rib chiqdik. Ularning hammasini birlashtirib, frazeologiyalar deb ham atadik.

Har bir xalq maqollar ob'ektlarini o'zi yashab ijod qilayotgan makondan, xalq urf-odatidan, xalq turmush tarzidan oladi. Ingliz tilidagi frazeologiyalar ham ingliz xalqi, ingliz xalq makoni muhitidan olingan.

Biz ko'rib chiqqan frazeologiyalardan ko'pincha suv o'lkasi, baliq ob'ekti, suv hayvonlari, kema-qayiq, suv hayvonlari bilan bog'liq bo'lgan va ular maqol, matal va idiomalar ob'ektlari bo'lib keladi. Ularning tarjimalari har xil metodlar bilan rus tiliga, rus tilidan o'zbek tiliga ag'darilgan.

Tarjimonlar frazeologiya tarkibidagi so'zlar tushunarli bo'lsa, ularni so'zma-so'z, ba'zi o'rinlarda o'zidan qo'shish, olib tashlash hollari uchraydi.

Lekin ko'pchilik hollarda frazeologiya moddiy ma'nosini tarjimada saqlaganlar. Bu esa tarjimachilikning asosiy xususiyatlaridan biridir.

3-§. Maqollarni tarjima qilish muammolari

«Ekvivalent» va izoh muqobil variantlarni bir-biridan farqlash kerak. «Ekvivalent» - lotincha soʻz boʻlib, maʼnosi «ravnosennoe», muqobil variant esa «vstrechniy» degan maʼnolarni beradi.

Ikki tilda kontekstsiz ham, maʼnolari bir-biriga monand va bir- birining oʻrni qoplay oladigan maqol, matal va idiomalarni «ekvivalent birikma» deb qabul qilish mumkin.

Rus tilidan, shuningdek boshqa tillardan kalka yoʻli bilan tarjima qilib qabul etilgan birikmalar ham ekvivalent boʻla oladi. Hatto boshqa tildan soʻzma-soʻz tarjima qilish natijasida, baʼzan buzib tarjima qilingan idiomalar ham, agar ular tilga singib ketgan boʻlsa, ekvivalent boʻla oladi. U misol uchun fransuz tilidan buzib tarjima qilingan «не в своей тарелке» idiomasi keltirish mumkin [34].

Ekvivalent birikmalar quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Куй железо, пока горячо.

Temirni qizigʻida bos.

Strike the iron while it's hot.

«Циплята по осени считают» - "joʻjani kuzda sanaydilar",
"pokornuyu golovu mech ne sechet" - "egilgan boshni qilich kesmas",
"objegshis na moloke, budesh dut na vodu" - "sutdan ogʻzi kuygan qatiqni puflab ichar", "proxodit krasnoy nityu" - "kizil ip boʻlib oʻtmoq" va hokazo.

Ammo rus tilida juda koʻp maqol, matal va idiomatik iboralar borki, oʻzbekchada har doim ham ularning toʻliq ekvivalentlari topilavermaydi. Shuning uchun maʼnolari faqat muayyan kontekst ichidagina bir-birining oʻrni qoplay oladigan frazeologiyalarni «muqobil birikma» deyiladi.

Ba`zan ruscha birikmaga ayni kontekst ichida bir emas bir necha birikmalar muvofiq kelishi mumkin. Bunday birikmalar muqobil variantlar deb yuritiladi. Birikmalarning muqobillari yoki muqobil variantlari faqat kontekst ichidagina bir-birini alamashtira olar ekan, bunda ularning ma`nosi to`g`ri kelsa ham, ko`pincha, formalari va ayniqsa, ob`ektlari to`g`ri tushmaydi.

Asarda tasvirlangan voqealar jarayoni, situatsiya, obrazning xususiyati va boshqa hollarga qarab qanday muqobil ibora tanlashni tarjimon hal qiladi.

Ruscha «прийти в себя» iborasini o`rni bilan «o`ziga kelmoq», «xushiga kelmoq», «o`zingizni tuting», «o`zingizni bosing» kabilar bilan berish mumkin. Agar kishi kasal bo`lib, biron baxtsiz hodisadan es-hushdan ketgan bo`lsa, uni «hushiga kelmoq» bilan bersa bo`ladi. Agar es-hushi joyida bo`lgan kishi biror voqea-hodisadan dovdirab qolsa, unga nisbatan «o`zingizni tuting», «o`zingizni bosib oling» deyish mumkin. «O`zingizni tuting» birikmasi ruscha «derjite sebya» idiomatik iborasi uchun ekvivalent bo`lsa, «pridite v sebya» birikmasi uchun muqobil variantdir.

«Aniq va xijjalab qilingan» tushunchalari «bukval`niy perevod» «bukvalizm» larni bizda har xil tushuniladi. Ular «so`zma-so`z», «satrma- satr», «harfxo`rlik», «bukvalizm» tarzida ko`p xil atamalar bilan ataladi.

«Дословный перевод» va «буквальный перевод» tushunchalari bizda farq qilinmay, ikkalasi ham «so`zma-so`z», «harfma-harf» deb qo`llanilgan. Vaholanki rus tilida «Дословный», «буквальный» terminlari anglatgan ma`nolari o`rtasida farq bor. Buni ajratmasdan, palapartish ishlatevirish bilan qo`pol xatolarga ham olib kelgan. Chunonchi, ko`pincha ilmiy tadqiqot ishlarida frazeologiyalarni so`zma-so`z tarjima qilish, ularni ma`nodan batamom mahrum qiladi, shu sababli bu usulni uning faqat salbiy tomoni bilan xarakterlash lozim deb hisoblaydilar. Lekin bu unchalik to`g`ri emas. quyidagi gaplarni so`zma-so`z tarjima qilsak, ular ancha to`g`ri, ularni ijobiy ma`noda qabul qilsa bo`ladi:

Axmoqqa qonun bitilmagan.

There is no law for stupid.

Baliq yugida qiskichbaqa ham baliq.

Where there is no fish crayfish is as fish.

Panja orasidan qaramoq.

To look through fingers.

Jahondagi ko`pchilik xalqlarning tillarida ayrim maqol, matal va idiomalarning ekvivalentlari ishlatiladi.

Masalan, rus tilida: «Лучше поздно, чем никогда»;

tatar tilida: «xich bo`lganchi kich bo`lsin», o`zbek tilida bunday maqol yo`q edi, shuning uchun u bizning tilimizga ham "hech bo`lmaganidan kech bo`lgani yaxshi" deb so`zma-so`z tarjima qilinadi va ko`pchilik tomonidan ishlatiladi.

Tojiklarning bir maqoli bor: "zo`ri behuda miyon meshikanad". Bu maqol o`zbek tilida aynan ishlatilishi bilan birga, parallel ravishda uning o`zbekcha tarjimasi ham qo`llaniladi:

"Behuda zo`r berish-belni sindiradi".

Ingliz tilida: "A fish in the air".

Ayrim maqol, matal va idiomatik birikmalarni ularning muqobillari bilan tarjima qilish ba`zan kutilgan natijani bermaydi.

Rus tilida "Kto seet veter, pojnyot bur`yu" degan maqol bor.

Ruscha -o`zbekcha lug`atda uning "Qarimta qaytadigan" (4 tom, 229-bet) degan noaniq va o`zok muqobili keltirilgan. Tarjimon M.Ismoilij "yo`ldagi kurashlar" kinopovestida bu maqolni "kim shamol yuborsa, o`zi bo`ronga uchraydi" shaklida -birikma tarkibidagi "seet" so`zini "yuborsa", pojnyot" so`zini esa "uchraydi" deb berish bilan yaxshi tarjima qilgan.

Bizningcha, uni "shamol eksang-bo`ron o`rasan" deb dadil tarjima qilaverish ham mumkin. Ruscha-o`zbekcha lug`atda "sabr qilsang etasan" (15-tom, 333-bet), deb berilgan. Ammo bu variant asardagi o`sha kontekstga to`g`ri kelmaydi. Tarjimon esa uni "sabr qilsang, g`o`radan halvo bitar" degan o`zbekcha muqobil matal bilan ag`dargan. Shunday qilib, ko`chma ma`nolari

bir-biriga muvofiq kelsa ham, ammo o`zbekcha "sabr qilsang, g`o`radan halvo bitar", hamda "terpi, kazak ataman budeshъ" birikmalari bir-biriga ekvivalent bo`lolmaydi.

Yuqoridagi matalni so`zma-so`z "sabr qil, kazak ataman bo`lasan" deb tarjima qilish maqsadga muvofiq ish bo`lar edi. Shunday qilib, frazeologiyalarni so`zma-so`z tarjima qilish mumkingina emas, ba`zan shunday qilishga zarurat tug`iladi. Maqolda mujjasamlashgan obraz tarjima qilinayotgan asardagi kontekst bilan uzviy aloqada bo`lganda, maqollar ko`pincha so`zma-so`z tarjima qilinadi.

"So`zma-so`z va xijjalab tarjima qilish turli-tuman tillarning so`zlari o`rtasidagi nuqul tashki, shakliy o`xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir.

So`zma-so`z tarjima esa "so`zni-so`z" bilan, hech narsani almashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yo`l qo`yib bo`lmaydi. So`zma-so`z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir.

Basharti boshqa tildan tarjima qilganda, o`zbek tilining o`zidagina mavjud lug`at rezervi hisobiga "sof" o`zbekcha so`z va iboralarnigina ishlatish, so`z va birikmalarning faqat o`z tilimizga mavjud ekvivalentlari va muqobillarinigina qo`llash shart bo`lsa:

a) bunday tarjima orqali biz yozuvchi tasvirlagan olamga kirib borolmas uni tushunolmas aksincha asardagi voqealarni o`z elimizga ko`chirib chet el yozuvchining siymosida o`z vatandoshimizni ko`rar edik;

b) bunday tarjima tilni zarracha boyitmas;

c) mazmun mavzusi uslubi murakkab va boy bo`lgan ayrim klassik asarlarni umuman tarjima qilib bo`lmas edi. Vaholanki badiiy tarjimalar tobora boyitib boriladi. Unga yangi tushunchalar, yangi so`zlar yangi maqol, matal va qisman yangi idiomalar kirib keladi. Unitilib kelgan ayrim so`zlar yana hayotga qaytadi. Mavjud so`zlar yangi ma`no kasb etadi yoki ma`nosi kengayadi.

Shunday qilib, hozir bizda ishlatilayotgan ayrim tushunchalar va atamalarga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi. Bizningcha so'zma-so'z tarjima ko'p hollarda ruscha "bukval'nyy perevod" ma'nosida ishlatilib kelgani uchun hamda rus tilining o'zida ham ko'p hollarda "doslovnnyy perevod" formalistik (bukval'nyy) ma'nosida qo'llangani sababli professor A.B.Fedorov ishlatilayotgan «tochnyy perevod» terminini qabulqilib, "aniq tarjima" deb qo'llash mumkin.

"Bukval'nyy perevod" ma'nosiga ega o'nlab atamalarni ishlatmasdan balki "hijjalab tarjima qilish" degan birikmali atamani qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

"Adekvat tarjima" tushunchasi va atamasi bizda ko'p ishlatiladi. Uning ma'nosi lotinchadan kirib kelgan bo'lib, "ravnyy, vpolne sootvetstvuyushiy, tojdestvennyy" demakdir. Shunday qilib, asl nusxasini to'liq aks ettiradigan, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjimadir.

"Kompensatsiya" tushunchasi va atamasini bizda dastlab X.Doniyorov va R.Doniyorovlar ishlaganlar [24].

"Antonomik tarjima" tushunchasini o'zbekcha "ziddiy tarjima" deyish mumkin. Bunda ma'nolari bir-biriga zid, degan tushuncha anglashilishi xavfi borligini hisobga olib, uning grekcha "antonomik" so'zini qo'llash ma'qol ko'rinadi. Shakli bir-biriga zid, ammo ma'nolari bir-biriga monand birikmalar antonomik birikmalardir.

Masalan, rus tilidagi "Nima bo'lsa ish bo'lsin", "mening parvoyimga kelmaydi" degan ma'noda ruscha "хоть трава не расти" degan frazeologik butunlik ishlatiladi.

O'zbekcha -ruscha lug'atda "Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi" mataliga "Слепой ошибается один раз" matali muqobil qilib ko'rsatilgan (233-bet).

24.Doniyorov X. va boshqalar. "Inson taqdirining tarjimasi". "Sharq; yulduzi" jurnali, 1970 №11.

Vaholanki, tuzilishi juda o`xshash bo`lgan bu ikki birikmaning ma`nosi bir-biriga zid, "hassasini bir marta yo`qotgan shundan keyin ehtiyotkor bo`ladi, ammo bir marta xatoga yo`l qo`ygan saperning o`z xatosini tuzatib, ehtiyotkor bo`lish mumkin emas-uning xatosi o`lim bilan barobar.

Shuning uchun bu ikki birikma bir-biriga soxta ekvivalentdir.

Shuningdek, o`zbekcha "onasini uchqo`rg`ondan ko`rsatmoq" idiomasi ruscha "pokazat` ko`z`kinu mat`" idiomasiining soxta ekvivalentidir.

Nutqimizda badiiy asarlardan kirib kelgan qisqa sitatlar, obrazli iboralar afsonalarda va badiiy asarlarda tasvirlangan, so`ng xalq tilida ko`chma ma`noda o`zlashib ketgan obrazlarning nomlari masalan, Afandi, Aldarko`sa, Rustami Doston, Yosuman kampir, Xlestakov va boshqalar tarixiy shaxslar nomidan aytilgan qisqa, ixcham ta`riflar "qanotli so`zlar" deb ataladi.

Manbalardan olinmay, turmushda tilda singib ketgan har xil obrazli iboralar, turli kasb -hunar atamaları ham "qanotli so`zlar" deb yuritiladi.

Biz yo`qorida ba`zi tarjima metodlarini, yo`l-yo`riqlarni eslatdik va ularni misollar bilan isbot qilib ko`rsatdik.

Endi maqol, matal va idiomalarni tarjima qilishi mumkin, va ularni to`g`ri tushunamiz, kitobxon va o`quvchilarga oddiy soddaroq qilib ko`rsata olsa, ishonamizki shu tarjima sifatli bo`ladi.

Bu ishimizda maqollar tarjimasi ham beriladi.

I. Maqol, matal va idiomalar (frazologiya)ni so`zma-so`z tarjima qilish mumkin, qachonki asl nusxadagi komponentlar ma`nosi o`zbek kitobxonlariga tushunarli bo`lsa.

Masalan:

- 1) a friend in need is a indeed - Do`st boshda qo`l fat tushganda bilinar.
- 2) a good beginning makes a good ending -yaxshi boshlangan ishning oxiri baxayr bo`ladi.

II. Inglizcha frazeologiyalarning so`zma-so`z tarjima qilganda, ular ma`nosi chiqmasa, ularni albatta, izohiy tarjima qilish yoki kontekstni o`zbekchaga mos analigi (o`xshashi) bilan almashtirish kerak.

Masalan, «to be a poor (bad) hand at something»ning (32; 276) tarjimasini ko`zataylik.

1) "Well, mr Cherell, what would you at advice do?" (V.N.Kommisarov, I, 61-bet) "I am a poor hand".

A вы m-r CHerell, kak бы вы postupili?

YA ne master davatъ sovetы.

Siz janob Cherell, nima deysiz?

Men maslaxat berishga ojizman.

2) A shoemaker's children go barefoot.

Sapojnik bez sapogov.

Bo`zchi belboqqa yolchimas.

III. Ba`zi frazeologik iboralar milliy koloritga ega bo`ladi. Ularni tarjima qilish ancha murakkab ish.

a) ba`zilarini so`zma-so`z tarjima qilish kerak, agar tarkibidagi realiyalar hammaga tushunarli bo`lsa.

Maqollar tarjimasi.

1) To carry coals to New castle. Nyu kaslga ko`mir toshi.

2) Ne will never set the thames on fire. U yulduzni urmaydi.

b) milliy koloritga ega bo`lgan inglizcha frazeologiyalarni neytral frazalar bilan berish.

1. To fight like Qilkennycts. Yo o`lish yoki tirik qolish.

2. He is a real sir Galahad. U haqiqiy ritsar.

A.Kunin M. 276-bet

v) obrazli frazeologik birikmalarni tarjima qilishda hech qachon tarjima tilidagi obrazli ifoda bilan almashtirmaslik kerak, chunki ular, albatta milliy xususiyatga ega bo`ladi.

1) "What will Mrs Ggapdy say" ni rus tiliga tarjima qilsak, "chto budet govorit` mister Ggapdi" deb tarjima qilmay, neytral oborot bilan "CHto lyudi skajut" - "Odamlar nima deydi" deb ag`darish kerak.

2) to carry coals to New Castle ni rus tilidagi o`xshatish bo`lsa ham, "ezdit` v Tuli so svoim samovarom" deb tarjima qilmaslik kerak, chunki inglizlar uchun "samovar" so`zi g`alati tuyuladi.

Ba`zi maqollar tarjimasi:

1. A friend in need is a friend indeed. Do`st boshiga kulfat tushganda bilinar.
2. A good beginning makes a good ending. Yaxshi ishning oxiri xayrli bo`ladi.
3. A good name is better than richnes. Yaxshi nom boylikdan yaxshi.
4. A shoemaker's children go barefoot. Bo`zchi belboqqa yolchimas.
5. A useless life is an early death. Foydasiz hayot-barvaqt o`limdir.
6. A wiseman changes his mind, but a fool never. Dono fikrini o`zgartirishi mumkin, nodon hech qachon.
7. A word is enough to the wise. Donoga imo, nodonga kaltak.
8. After dinner sit a while, after supper walk a mile. Tushlikdan keyin ozroq dam ol, kechki ovkatdan keyin ko`proq yura qol.
9. All are not saints that go to church. Machitga borganlarning hammasi ham xudojo`y emas.
10. As you sow, you shall mow. Nima eksang, shuni o`rasan.
11. Beauty is in the eye of the gazer. Mehp-ko`zda.
12. Better deny at once than promice long. Bermas qizning sepi ko`p.
13. Bravity is the soul of wit. Sihlat tilasang ko`p yema.

Matallar tarjimasi

1. A bird in the hand is worth two in the bush. O`zoqdagi quyruqdan yaqindagi o`pka yaxshi.
2. A bird may be known by its song. So`ziga emas, ishiga boq.
3. Who keeps company with the wolf will learn to howl. Qo`shning ko`r bo`lsa, ko`zingni qis

I - bob bo'yicha xulosa

Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib turganidek, ota-bobolar so'zi sifatida avlodlardan -avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Bu merosni xalq ko'z qorachig'iday asraydi.

Maqol xalqning pand-nasihati, ma'naviy axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol xalq idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik majmui, turmushdagi turli voqea -hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlari bilan muomalasida bo'lish jarayonida tug'iladi.

Maqollar borki, "shirin" pand- nasixat qiladi, aql o'rgatadi, mard va botir bo'lishga da'vat etadi.

Maqollar borki, "achchiq" -aybingizni dangal yuzingizga aytadi.

Hamma xalq maqollarida, qandaydir umumiylik borligi, ma'nosi bir xil, ammo so'zlari har xil, o'z muhitiga moslanganligi yo'qoridagi bobda jadvallar orqali izohlab berilgan.

Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollarda shakl ixchamligi, so'zlarning kelishi va alliteratsiya, qarama-qarshi so'zlarning birikishi ham maqollarning shakl xususiyatiga xos belgilardandir. Maqolni matal va idiomalardan farqlay olish maqsadida ushbu bobda ularning bir-biridan farqlari aniq va konkret keltirilgan. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal "u aqli past" deyish o'rniga "uning bir qaynovi past" deydi. "Ular bir-biriga juda o'xshaydi" deyish o'rniga -"ular bir olmaning ikki pallasi" deb ataydi. Bularni esa maqol deb bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ularning har uchulasi bir-biriga o'xshash bo'lsada, ularning farqli jihatlari mavjud. Ushbu bobda maqollarning yaratilishi, matal va idiomalarning undan farqli jihatlari va maqollarni tarjima qilish muammolari batafsil yoritilgan, ya'ni mavzu nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan.

II-bob

O`zbek tilida maqollarning ifodalanishi

1-§ Maqollarning o`z va ko`chma ma`nolari

Turmushda ro`y bergan voqea-hodisa natijasida vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda millatimiz vakili biron maqolni o`z fikrini tasdiqlash maqsadida keltirishi mumkin. Ammo mazkur maqolning o`z yoki ko`chma ma`noda qo`llanganligini baho berilayotgan voqeani aniq ko`z oldimizga keltirish orqali aniqlaymiz.

Masalan, agar Farg`ona vodiysidagi dehqon qaysi bir sabab bilan yer haydamagan bo`lsa-yu, bahorda qayta-qayta ekin maydonini haydagani bilan yaxshi hosil olmasa, yuqorida aytilgan maqol o`z ma`nosiga qo`llangan bo`ladi. Ammo biron shaxs tomonidan tadbirning amalga oshirilishi kechiktirilsa va keying harakatlar natija bermasa ham «Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqoli misol sifatida qo`llanilishi mumkin. Endi bu namuna ko`chma ma`noni anglatadi. Shu bilan birga aytish mumkinki, maqollar mazmuniga ko`ra ko`chma ma`noda ko`proq qo`llaniladi: Shamol bo`lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas, Chumchuqdan qo`rqan tariq ekmas, Burgaga achchiq qilib ko`rpani kuydirma, Chumchuq so`ysa ham, qassob so`ysin kabi hikmatli so`zlar ko`pincha ko`chma ma`nolarda ishlatiladi [52].

Turli xalqlar og`zaki ijodidagi maqollarni o`rganish bu janr namunalari mazmunan deyarli hamma xalqlarda bir xil takrorlanishini ko`rsatmoqda. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o`zlashtirganligi bilan izohlash to`g`rib o`lmaydi. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o`xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va umuman, hayotning ko`p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan ma`qulroq.

Masalan:

Ilon chaqqan, arqondan qo`rqar (ingliz),

Kuygan mushuk sovuq subdan qo`rqar (fransuz),

Jo`jani tuxum ochilgandan so`ng sana (ingliz),

Bigizni qopda yashirib bo`lmas (rus),

O`zbek tilidagi, qo`rqqanga arqon ilon ko`rinar, Sutdan kuygan katiqni iufiab ichibdi, Jo`jani kuzda sanaymiz, Oyni etak bilan yopib bo`lmas kabilar bilan o`xshash ma`noni bildiradi [52].

Matallar ham shakl va mazmun jihatdan maqollarga juda o`xshash janr hisoblanadi. Ularning matni, xajmi, badiiyligi jihatdan maqollarga yaqinligini juda ko`p olimlar tasdiqlaganlar. Hatto, ko`pincha matal atamasi maqol bilan almashgan holda qo`llanilishi ham ko`zga tashlanadi. Matallar so`zlovchi nutqining ta`sirchanligini oshiradi, shaklan go`zallashtiradi.

Ammo maqol bilan matalni janr jihatdan o`ziga xos xususiyatlari borki, ularni hamisha bir-biridan farqlagan holda tasavvur qilish mumkin. Gap shundaki, maqollarda hayotda ro`y bergan bir voqeaga umumlashtirilgan holda hukm chiqariladi. Bu hukm tasdiq yoki inkor ma`nosini bildiradi, ayni paytda xalq maqollari mazmunan tugal fikrga ega bo`ladi va ular alohida qo`llanilsa ham ma`no anglataveradi.

Matallar esa so`zlovchi nutqi tarkibining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo`llash mumkin bo`lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi.

Masalan: «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini olaylik. Agar «ilon inidan chiqadigan» matali bu jumladan olib tashlansa, uning o`rniga yaxshi so`zini qo`yish mumkin. Natijada, «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini «falonchi yaxshi gapirdi»ga teng bo`ladi. Ammo «ilon inidan chiqadigan» so`z birikmasi alohida qo`llanganda mustaqil ma`no anglatmaydi. Shu bilan birga «yaxshi so`z bilan ilon inidan, yomon so`z bilan qilich qinidan chiqar» maqolini ham esga olish mumkin. Mazkur misoldagi «ilon inidan» so`zlariga diqqat qilaylik, chunki bu so`zlar mustaqil qo`llanganda bo`lak fikr anglatuvchi maqolning tarkibiy qismidir.

Ma`lum bo`ladiki, maqol va matal aslini olganda xalq hayotida tutgan o`rni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat ularning biri tarixan maqol bo`lib shakllanishga ulgurgan, ikkinchisi esa matal sifatida yashayvergan.

Demak, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin turadi, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr bo`lsa, matalda bu mustaqillik ko`zga tashlanmaydi.

Maqollar xalq aql-zakovatining ummoni sanaladi. Ular tilshunoslar uchun bitmas-tuganmas xazina bo`lib, maqollarda transformatsiyalanish hodisasi ko`p uchraydi. Transformatsiyalanish (aylanish, o`tish) natijasida asosiy nutq talabiga ko`ra predikativ sintagma - hosila gap vujudga keladi [39]. Hosila gapda nutq talabiga ko`ra payt holi vazifasida kelgan birikmalar ko`plab topiladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida payt holi so`z shakl bilan, predikativ va nopredikativ sintagma bilan ifodalanadi.

Payt holining predikativ sintagma bilan ifodalanishi o`zbek xalq maqollarida ko`plab kuzatiladi. Xalq maqollarining transformatsiyalanishi natijasida gap so`z birikmasiga aylanib u gap bo`lagi vazifasini bajaradi:

Yer tuydi - er tuymaguncha.

Vaqt utdi - vaqt o`tgandan keyin.

Ish bitdi - ish bitgach,

Yov keldi - yov kelganda...

O`zbek xalq maqollarini nazardan o`tkazsak ularda asosiy gap transformatsiyalanish natijasida qurilgan hosila gapda payt holi vazifasini bajargan bo`lak va matnda yaxlit holda qachon? So`rog`iga javob bo`ladi:

Oting borida yo`l tani, Aqling borida el tani.

G`ayratsizning gayrati, ish bitganda qistaydi [45].

O`zbek xalqi nutqida transformatsiyalanish eng qadimgi davrdan mavjud hodisadir. O`zbek xalq maqollarida transformatsiyalashda predikativ sintagmalarning payt holi vazifasida kelishining turli-tuman shakllari mavjud:

1. Predikativ sintagmaning kesimi bor modal so`ziga qo`shilgan III shaxs birlikdagi tuslovchi qo`shimcha III shaxs birlik (-i) egalik qo`shimchasi bilan almashtiriladi va undan so`ng o`rin kelishigi qo`shimchasida qo`shilib predikativ sintagma shakllanadi va u payt holi vazifasini bajaradi:

Esing borida el tani, Kuching borida yer tani!

2. Predikativ sintagmaning sifatlanishi tushib qolib, sifatlanishning grammatik shakli sifatlovchi vazifasidagi predikativ sintagma o`tkaziladi. Natijada predikativ sintagma hosila gapda payt holi vazifasini bajarib keladi:

Dard ketganda, uyqu kelar,

Dard kelganda, darmon ketar.

Gap kelganda otangni ayama!

3. Predikativ sintagmani payt holi vazifasida keltirish uchun predikativ sintagma tarkibidagi -di zamon va tuslovchi qo`shimcha tushirilib, unga -gan sifatdosh shakli, so`ng -dan chiqish kelishigi qo`shimchasi va keyin kumakchisi keltiriladi:

Vaqt o`tgandan keyin qilichingni toshga chop.

4. Kesimi kelasi zamonni ifodalaydigan predikativ sintagmani transformatsiyalash natijasida tuslovchi -di tushiriladi va unga -gach, -guncha ravishdosh yasovchi qo`shimchalar qo`shiladi. -gach shakli biror harakat-holat bajarilgandan keyingi paytni bildirsa, -guncha shakli harakat-holat bajarilishidan oldingi paytni bildiradi:

Yomonning yaxshisi bo`lguncha,

Yaxshining yomoni bo`l.

Er to`ymaguncha, el to`ymas.

Tuyadek bo`y berguncha, tugmadek aql ber.

Xullas, o`zbek xalq maqollarida transformatsiyalash natijasida maqollarning turli variantlari vijudga keladi [38].

Xalq maqollaridagi predikativ sintagmaning payt holi vazifasida kelishi

uchun -da, -dan, kelishik shakli, -i egalik qo`shimchasi - gan sifatdosh yasovchi, - gach, -guncha ravishdosh yasovchi shakllar, keyin kumakchisi faol ishtirok etadi.

Xalq maqollaridagi bu xususiyatni o`rganish tilimiz uslubiy ta`sirchanligi imkoniyatlarini namoyan etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-§ Maqollarning yondosh hodisalarga munosabati va til-nutq bo'linishidagi o'rni

Maqollarning idiomalarga munosabati. Ma'nosi tarkibidagi lug'aviy birliklarniig asl ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holida bir ko'chma ma'no beruvchi so'z yoki so'zlar bog'lanmasi idiomalardir [45]. Idioma tuzilishiga ko'ra so'zdan ham, so'z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo'lishi mumkin (birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda, idiomaning ichki sintaktik qurilishi nazarda tutiladi): So'z: tulki, latta.

So'z birikmasi: tuyog'ini shiqillatmoq, besh qo'lini og'ziga tiqmoq. Gap: tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga.

Ma'nosi tarkibidagi lug'aviy birliklarning asl ma'nosiga bog'liq bo'lmagan so'zlar so'z-idiomalardir. Tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga teng keluvchi idiomalar tarkibiga frazeologik birliklarning katta qismi mansub. Ba'zi iboralar ichki tuzilishi jihatidan gapga teng keladi. Ular uchinchi turga - gap-idioma guruhiga kiritildi. Gapga teng keluvchi frazeologik birliklar bilan bir qatorda maqollar ham xuddi shu guruhga qo'shildi. Ana shu uchinchi nuqtada ibora va maqol birlashadi, endi ular o'rtasidagi farqni aniqlashga zarurat tug'iladi. Bunday farqlar uch yo'nalishda kuzatildi.

Etimologik jihatdan maqol va frazeologizm orasidagi farqlar. "Odatda, maqolni, - deb yozadi prof. B.M.Karriyev, -dastlab o'tkir kuzatuvchanlik va o'z fikrini bir necha so'z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo'lgan bir kishi to'qib chiqaradi. O'rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo'lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday o'rinli aytilgan gap, omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng, umumlashma ma'noga ega bo'la boradi" [28; 16].

Bu yerda muhim bo'lgan belgilar:

- birinchidan, maqol shunchaki so'zlar tizmasi bo'lmay, balki ular kuzatuvchanlik asosida vujudga kelgan fikrlarning xulosasi bo'lishi darkor (Frazeologizm uchun esa, odatda, tayyor so'z tizmalarining ko'chma ma'no ifodalashi va shu holatda turgun so'z bog'lanmasiga aylanishi kifoya):

- ikkinchidan, bu xulosa jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi shart.

Bularga qo'shimcha ravishda yana shuni aytish kerakki, yuqoridagi ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta, kristal shaklga ega bo'lishi lozim.

Demak, maqol frazeologizm singari tayyor til birligi emas, balki omma tomonidan yaratilgan kichiq janrli badiiy asardir.

Odatda, inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan, real borliqning aniq hodisalarini ifodalaydigan erkin so'z bog'lanmalaridan iboralar vujudga keladi. V.G.Kostomarov va E.M.Vereshagin "yeng shimarib" iborasining kelib chiqishini quyidagicha sharhlaydi: "Bu ibora qadimgi Rusda kiyilgan ustki kiyim bilan bog'liq bo'lib, bu kiyim shunaqangi uzun va keng yengli qilib tikilardiki, u tizzagacha, ba'zan oyoq tovonigacha yetardi. Bu kiyim ruslarning sovuq ob-havosiga moslashtirilgan edi. Uzun yenglar qaysidir ma'noda qo'lqop o'rmini bosardi. Bu uzun tushirilgan yenglar bilan biron bir ishni bajarish amri mahol edi, shuning uchun avval ularni shimarib, sung ishga kirishilardi". Bu kiyimlar allaqachon yo'qolib ketgan bo'lib, hozirgi kunda yeng shimarmasdan turib ham ish bajarish mumkin, ammo "yeng shimarib" birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotib, birgalikda ko'chma ma'no kasb etgan va idiomaga aylangan. Shu tariqa frazeologizm vujudga kelgan. Ammo barcha iboralarning asosini erkin "bog'lanma yoki gap tashkil etadi, deyish shartli bo'lib, bu xususta A.Mamatovning doktorlik ishida batafsil ma'lumot berilgan [39].

Ma'noviy jihatdan maqol va frazeologizm orasidagi farqlar. Maqol va iboralarni birlashtirib turuvchi yagona xususiyat - ularning idiomatik harakterga

ega ekanligi -ular orasidagi boshqa ma`noviy farqlarni inkor etmaydi. Ko`pgina erkin so`z bog`lanmalari ko`chma ma`no ifoda etib, shu holatda qotib qolib frazeologik iboraga aylangan bo`lsa-da, ba`zan o`zining to`g`ri ma`nosida ham ishlatiladi va bunda u iboralik belgilaridan butunlay xoli bo`ladi, ya`ni erkin so`z bog`lanmasi hisoblanadi.

Masalan: Zulfiya ko`ylagi ho`l bo`lmasin uchun, avval yenglarini shimarib, so`ngra ishga kirishdi.

Maqollar tarkibidagi so`zlar tizmasi esa maqollik holatidan boshqa paytlarda aynan shu shaklda uchramaydi. Shuning o`zi maqollarning shunchaki til birligi emas, balki kichik xajmli badiiy asar, nutq birligi ekanligidan ham dalolat beradi. Maqollar narsa va hodisalar haqidagi fikrni ifodalab, butun boshli hikoyalarga teng kela oladi. Iboralar esa so`zlar singari narsa-hodisalar haqidagi tushunchani anglatadi.

Frazeologik bog`lanmada ba`zan idiomatik ma`no bilan asl ma`no bir- biriga qarama-qarshi kelib qolishi mumkin:

Qo`llarigacha mahkam yopingan o`rmon kesuvchilar izg`irin sovuqda yeng shimarib mehnat qilmoqdalar.

Maqollarda esa gohida uning idiomatik ma`nosi maqol tarkibidagi so`zlarning asl ma`nosiga mos kelib qoladi:

"-Ukamning ahvoli qanday?" - deb so`radi.

- Ko`zini ochmaydi. Tezroq biror eshon topib o`qitish, tumor qildirib taqish kerak, - dedi Mehrmox.

- "Agar kasal sog`ayadigan bo`lsa, tabib o`zi kelib qoladi" deyдилar. Darsozli mashhur Sultonxon eshon bu kecha qishlog`imizga *mexmon* bo`lib kelgan. Buning o`zi kasalning sog`ayish alomatidir" ("**Doxunda**", 36-bet).

Bunday holatni ko`pgina olimlar maqollarning o`z ma`nosida ishlatilishi deb belgilaydilar [17].

Fikrimizcha, xuddi shunday paytlarda ham maqollar-tarkibidagi so`zlar o`z ma`nosida qo`llanmaydi. Balki idiomatik ma`no, baribir, hukmron bo`lib

qolaveradi. Maqollar o'z va ko'chma ma'nosining tasodifan parallel kelib qolishi va bunda maqolning o'z ma'nosining ham, ko'chma ma'nosining ham kontekst bilan bimalol bog'lanib ketishi tadqiqotchini chalg'itib qo'yishi, ehtimol.

Sintaktik jihatlan maqol va ibora orasidagi farqlar. Maqollar kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida bo'lib, tugal fikr ifodalaydi, o'z ichki grammatik qurilishi jihatidan ham doim gapga teng bo'ladi. Ulardan anglashiladigan mazmun faqatgina tasviriy yo'l bilan ochiladi:

“Daraxt bir joyda ko'karadi” hayotingni o'tkazib turgan eringning shart-sharoitiga ko'nik. Agar bu shart-sharoitlarni yoqtirmay, issiq, o'rningni tashlab, yaxishroq yerni qidirib ketsang, baribir qadr-qimmat topa olmaysan. O'z eringga qanoat qilsang, bora-bora kamolga yetasan, shundaylikcha qolib ketmaysan, biring ikki, yomonning yaxshi bo'ladi”.

Iboralar gapda atash xususiyatiga ega bo'lib, tushuncha anglatadi, ularning ma'nosi, odatda, so'z yoki so'z birikmasi bilan izohlanishi mumkin: "Og'zing qani"- desa, qulog'iki ko'rsatadigan - anqov; adi-badi aytishmoq - janjallashmoq; joniga ora kirmoq – og'ir ahvoldam qutqarmoq astar- avrasini ag'darmoq - barcha kirdikorlarini ochib tashlamoq.

Frazeologizmlar ichki grammatik qurilishi jihatidan birikmaga ham, gapga ham teng bo'la oladi: avjiga chiqmoq, pinagini buzmaslik, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, yuragi yorilmoq [38].

Maqol va matal orasidagi munosabat. Tilshunoslikda maqol va matallarni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga kura bir-biridan farq qiladi. Matal nutqda xabar berish vositasi bo'lsa, maqol shu xabarni jonli timsollarda yetkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi.

Masalan, matal:

Xavf-xatardan qo'rqqan maqsadga yetolmas. *Shu ma'noning maqollarda ifodalanishi:*

Chumchuqdan qo`rqqa tariq ekmas.

O`g`ridan qo`rqqa mol yigmas.

Uchqundan qo`rqqa temirchi bo`lmas.

Ilondan qo`rqqa olachilvirdan hatlamas [64].

Har qanday sharoitda ham matallarning mazmuni o`zgarmay, aslicha qolaveradi: Meqnatning aybi yo`q.

Ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan bog`liq holda maqollar ifodalagan mazmun miqyosi o`zgarib boradi, ba`zan esa butunlay boshqacha mohiyat kasb etishi ham mumkin.

Masalan, "To`ng`izdan bir - tuk" maqolini olib ko`raylik.

"To`ng`izdan - bir tuk. Islom qonuniga ko`ra, to`ngiz (cho`chka)ning butun a`zosi harom hisoblanadi. Ammo namoz o`qiganda mabodo kishining kiyimiga to`ng`izning biror tuki yopishib qolgan bo`lsa-yu, buni namozxon paykamagan bo`lsa, o`qigan namozi joiz bo`laverarmish. Poyabzal tikuvchi kosiblar shariat qonunining ana shu nuqtasidan foydalanib, to`ngqizning tukini so`zan (igna) o`rnida ishlatardilar. To`ngizning yolidan olingan tukning uchi ayri bo`ladi. Tikiladigan ishni shu ayrining orasiga qistirib, keyin uni tizzaga qo`yib, qo`l bilan ximarib, chiyiradilar. Shunda tuk bilan ip chirmashib, bitta bo`lib qoladi va bigiz urilgan teshikdan ravon o`tadi. Yuqoridagi maqol bilan majozan: "Birovdan nimaiki unadigan bo`lsa, undirib qol: har bir g`animat narsadan imkon boricha foydalanib qol", demoqchi bo`lganlar" [67].

Hozirgi vaqtda "To`ng`izdan - bir tuk" maqoli "Karnaychidan - bir puf", "Tegirmonchidan - bir bup" kabi maqollar bilan o`zaro sinonimlik tashkil etadi va bular bir odam biror nimani iltimos qilganda: "Sizdan nima ketdi, bu ish siz uchun hech gap emas-ku" degan ma`noda ham qo`llanadi.

Matallarning shakliy ko`rinishi, asosan, o`zgarmaydi (Grammatik shakllar o`zgarishi bundan mustasno, albatta):

Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda bo`l.

Maqollar timsollar vositasida ish ko`rar ekan, jamiyat hayoti, xalq, turmushi bilan bog`liq holda ularning timsollari tizmasi - shakli o`zgarib turadi:

Bir qinga ikki qlich sigmagay ("Yulduzli tunlar", 270-bet).

Ikkita qo`chqorning boshi bir qozonda qaynamas ("**Jimjitlik**", 256-bet).

Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko`chma ma`noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo`lmay, asosan, to`g`ri ma`noda qo`llanishida ko`rinadi.

"Ma`lumki, til ko`p qirrali hodisa bo`lib, unda tipik, barqaror kategoriyalar bilan bir qatorda oraliq hodisalar ham uchrab turadi" [68], Xuddi shunday holatni maqol va matal oraligida ham ko`rish mumkin. "Maqol va matal oralig`ida keng ko`lamda maqol-matal tipidagi ifodalar joylashgan bo`lib, ular o`zida maqollik va matallik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday ifodalarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ularda bir qism so`zlar o`z ma`nosida ishlatilsa, ikkinchi qismi ko`chma ma`no ifodalaydi" [64]:

Boy boyga boqar, Suv soyga oqar.

Hamsoya hamsoyadan ulqi olar,

Qovun qovundan rapq.

Shunday qilib:

1. Tilshunoslikda maqollarni o`rganish bo`yicha ikki yo`nalish mavjud bo`lib, birinchi yo`nalish tarafdorlari ularni frazeologiya doirasida, uning bir turi sifatida o`rganishni tavsiya etadilar. Bu guruh tarafdorlari frazeologiya doirasini keng ma`noda tushunuvchi olimlar toifasiga mansubdir, ikkinchi yo`nalish tarafdorlari maqollarning frazeologik tabiatini inkor etib, frazeologiya doirasini tor ma`noda tushunadilar.

Bizningcha, frazeologiyani o`rganish ob`ektini tor ma`noda tushunish to`g`riroqdir. Maqol bilan ibora faqat bir nuqtada umumiylikka ega. Ya`ni maqol ham, ibora ham idioma sanaladi.

2. Maqollar va frazeologizmlar idiomalar deb yuritilgan ekan, demak, ulardagi mazmun ko`chma ma`noga asoslangan bo`ladi. Lekin farq shundaki,

maqoldan anglashiladigan mazmun tasviriy yoʻl bilan ochiladi, iboradan anglashiladigan maʼnoni esa xuddi soʻzdan anglashiladigan maʼno kabi taʼriflash mumkin. Maqoldan pand-nasihat, yoʻl-yoʻriq koʻrsatish yoʻsinidagi mantiqiy umumlashma anglashiladi, u keng mazmunli va ixcham shaklli badiiy asar sifatida nutq birligi hisoblanadi. Iboradan anglashiladigan maʼno esa lugʻaviy maʼno boʻladi, shunga koʻra ibora lugʻaviy birlik hisoblanib, tilning lugʻat boyligiga kiradi.

Maqolning iboradan yana bir farqi shundaki, maqollar oʻz ichki grammatik qurilishi jihatidan doim gapga teng boʻladi, iboralarda esa bu jihatdan bir xillik yoʻq: ular birikmaga teng ham, gapga teng ham boʻla oladi [64].

Maqollar haqida soʻz borar ekan, olimlar, odatda ularni semantik jihatdan ikki turga boʻladilar:

- 1) faqat koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan maqollar;
- 2) ham oʻz maʼnosida, ham koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan maqollar.

Bizningcha, maqollarni maʼno jihatidan bunday turlarga ajratish oʻzini oqlamaydi. Chunki ular hech qachon oʻz maʼnosida ishlatilmaidi. Maqollar faqatgina koʻchma maʼnoda qoʻllaniluvchi xalq hikmatlari hisoblanadi.

"Nima eksang, shuni oʻrasan", Shamol boʻlmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi singari maqollardagi asl maʼno bilan idiomatik maʼnoning mos, kelib qolishi esa tasodifiy holatdir.

3. Idiomatik maʼnoga ega ekanligi jihatidan maqol ibora bilan bir guruhga birlashsa, matallar bilan alohidalikni tashkil qiladi. Matallar grammatik jihatdan tugallangan fikr bildiruvchi, faqat oʻz maʼnosida - toʻgʻri maʼnoda qoʻllanadigan qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir. Maqollarning matallardan asosiy farqi, maqollarning koʻchma maʼnoga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega boʻlmay, faqatgina toʻgʻri maʼnoda qoʻllanishida koʻrinadi.

4. Matal xabar berish, maqol esa shu xabarni dalillash, isbotlash, xulosalash vositasi ekan, baʼzan bularning har ikkisi yonma-yon qoʻllanishi mumkin,

bunday hodisa tilda maqol-matal tipidagi paremalarning yaratilishiga asos bo`ladi.

Maqol-matal tipidagi paremalarda o`z ma`nosida qo`llanuvchi bo`lak umumiy ko`chma ma`no ifodalovchi qismning mazmunini reallashtirish, aniqlashtirish uchun xizmat qiladi [5].

3-§ Maqollarning ma`noviy-uslubiy qo`llanilishi va ularning sinonimiyasi

Maqollarda ko`p ma`nolilik hodisasi iboralardagi singari ko`p emas. Lug`at uchun yig`ilgan misollardan ma`lum bo`lishicha, maqollarning ko`pchiligi monosemantikdir. Polisemantiklik, asosan, o`zbek tilida juda qadimdan va eng ko`p ishlatiladigan maqollarga xos:

Masalan: Egasini siylagan itiga suyak tashar.

1- ma`no: ba`zi "pixini yorgan" xushomadgo`y, laganbardor kishi bevosita tegishli odamning o`ziga emas, uning xotin, bola-chaqasiga xushomad qilib, sovg`a-salomlar berib, shu yo`l bilan u odamning ko`nglini o`ziga moyillashtirmoqchi, o`z manfaatini ko`zlab iltimos qilib borgan ishini bitirmoqchi bo`ladi:

Nima qilsin? Quruqdan quruq boraversinmi? Har kim o`z obro`siga yarasha ish tutishi kerak. Shunday narsa oborsinki, Rauimovning qulog`iga yetsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti, desin. Egasini siylasang, itiga suyak tashla, deb bekorga aytilmagan ("Jimjitlik", 225-bet).

2- ma`no: agar kishi birovni sevsa, ardoqlasa, shu bois unga yaqin bo`lgan kishilarni ham izzat-ikrom qiladi, e`zozlaydi:

Egasini siypalagan itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufaypi qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko`rar edilar ("O`tgan kunlar", 340-bet).

O`zbek tilida uch ma`noli, turt ma`noli maqollar xam anchagina bo`lib, ular ishda tahlil qilib chiqilgan.

Sinonim - grekcha bir nomli demak, denotativ ma`nosi bir xil, konnotativ ma`nosi (qo`shimcha ma`no ottenkasi, stilistik bo`yogi) va boshqa xususiyatlari farqli bo`lgan so`zga sinonimlar deyiladi: yuz, aft, bashara, chehra; odat, rasm

Sinonimiya - bir xil nomga egalik quyidagi ko`rinishlarga ega:

1) leksik sinonimiya, ya`ni so`zlar ma`nodoshligi; ish - yumush, gapirmok - so`zlamok;

- 2) iboralar ma`nodoshligi; boshi osmonga yetdi - terisiga sig`madi;
- 3) affiksial, ya`ni grammatik shakllar ma`nodoshligi; - yotir, - moqda;
- 4) sintaktik sinonimiya; ona bolasiga qayg`uradi - ona bolam deb qayg`uradi.

Tilshunos olimlar so`zdagi ma`no xususiyatlarini ko`zda tutib, sinonimlarga turlicha ta`rif beradilar [68].

Sinonimlarning mohiyatini to`g`ri tushunish uchun 2 hodisani bir - biridan farqlash lozim.

- 1) tushuncha va so`z ularning o`zaro munosabati;
- 2) so`z va uning ma`nolari, har bir so`zning ma`no ottenkalari.

Tushuncha, predmet, belgi, voqea, hodisa harakatlar haqida kishilarning tasavvuri bo`lib, so`z shularning ma`lum tovush reallashuvi demakdir. Tushuncha so`zga, so`z esa tushunchaga to`la ravishda mos kelavermaydi.

Shuningdek, so`z tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyati va muhim tomonini aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va boshqa xususiyatlari boshqa so`zlar bilan ifodalanadi. Shu sababli tilda ma`nodosh so`zlar sinonimlar paydo bo`ladi.

Sinonimlar ta`riflanganda, ma`nolari bir xil deyish to`g`ri emas, ma`nosi bir xil so`zlar dubletlar deyiladi.

Ular anchagina: arava - aroba, shohi - shoyi, qado - qadoy, boaqi - baaqi kabi.

Birlashtiruvchi ma`nosi bilan o`zaro bog`lanuvchi so`zlar guruhi **sinonimik qator** deyiladi. Sinonimik qator ikki va undan ortiq so`zlardan tashkil topadi: osmon - ko`k - samo - falak; qiziq - g`alati - ajoyib - alomat - antiqa - ajab - ajib [70].

Sinonimik qatorni tuzilishda ma`lum chegaraga va aniqlikka ega bo`lgan, stilistik (uslubiy) jihatdan «betaraf» so`z **dominanta** deb yuritiladi: yurak - ko`ngil - qalb qatorida dominanta **yurak** so`zidir.

Sinonimik munosabat, odatda, bir soʻz turkumi doirasida boʻladi: ulugʻ buyuk - katta (sifat), odam - inson - bashar (ot). Sinonimik qator barcha mustaqil va yordamchi soʻzlar, shuningdek, modal soʻzlar doirasida uchrashi mumkin.

Bu oʻrinda soʻzlardagi leksik semantik guruh (LSG) va sinonimik qator tushunchalari oʻzaro yaqinligi, ammo ular bir-biridan farq qilinishni aytish lozim. Leksik semantik guruh, tushunchasi «sinonimik qator»dan ancha keng. U oʻz ichiga «sinonimik qator» tushunchasini toʻla qamrab oladi: ninni chaʼalok – goʻdak - bola - yigit kabilar. Bir leksik semantik guruhni tashkil etadi. Lekin bu sinonimik qator emas. LSG ichida sinonimik qator boʻlishi mumkin: ninni - chaqaloq – goʻdak [40].

Maʼnodoshlik maqollarda ancha keng tarqalgan semantik kategoriyalardan biridir [49]. Maqollar oʻzaro maʼnodoshlik munosabatida boʻlishi uchun, asosan, quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- 1) yagona maʼno asosiga egalik;
- 2) bir tematik guruhga tegishlilik;
- 3) xar bir maqol alohida obraz asosiga koʻrilgan boʻlishi;
- 4) ayrim mazmun nozikliklari va qoʻllanish darajasi bilan farqlanishi.

Maqollar sinonimligining eng asosiy omili ularning shakllaridan, obrazlaridan katʼiy nazar, mazmun jihatidan biri ikkinchisining oʻrnida qoʻllana olish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. "Bundam almashtirish natijasida maʼnoda, uslubiy boʻyoqda maʼlum oʻzgarish yuz beradi. Bu - tabiiy. Aks holda almashtirish oʻz mantiqini yoʻqotib qoʻyadi. Almashtirish natijasida nimadandir xalos boʻlamiz, nimagadir ega boʻlamiz.

Ana shu "nimalar" sinonim haqida gapirish uchun asos boʻladi. Aks holda sinonimga emas, dubletga ega boʻlinadi" [9].

Misollarga murojaat qilaylik.

1. Sichqonning oʻlgisi kelsa, mushuk bilan oʻynashar.
2. Echkining kaltak egisi kelsa, choʻponning tayogʻiga surkalar.

3. Ilonning o'lgisi kelsa, shig'irda yotar.
4. Ajali yetgan kiyik adirga ko'char.
5. Parvonaning o'lgisi kelsa, sham bilan o'ynashar.
6. O'lgisi kelgan chivin bolga qo'nar.
7. It qutursa, egasini qopar.
8. Bo'ri qutursa, o'z qavmiga chopar.
9. Buqa semirsa, egasini suzar.
10. To'rg'ay qutursa, burgutga chopar.
11. Eshak semirsa, egasini tepar.
12. Ajali yetgan tulki ovchining oldidan chiqar.
13. Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar.
14. Mushukning o'lgisi kelsa, arslon bilan o'ynashar.

Ushbu maqollarning barchasida "bo'ladigan baloga aksariyat hollarda kishining o'zi sababchi bo'ladi: o'zidan jismoniy, moddiy yoki mavqei jihatdan kuchli bo'lgan, yo'qori turadigan odam bilan olishadi va o'z qilg'ilig'ining qurboni bo'ladi", -degan umumiy mazmun ifodalangan [47;55].

Yagona shu mazmun orqali ular bir tematik guruhga birlashgan. O'zaro ma'nodoshlik tashkil qiluvchi bu maqollarning har biri alohida obraz asosiga ko'rilgan va ayni paytda har qaysi maqol o'zining ma'no nozikligi hamda qo'llanish darajasi bilan farq qiladi.

O'zbek xalq maqollari lug'atlarida 200 tadan ortiq sinonimik uya mavjud bo'lib, bu sinonimik uyalarga 1100 tadan ziyodroq maqol kirgan. Leksik sinonimiyada bir uyaga ikkitadan tortib untagacha, ba'zan esa untadan ham ortiq; so'z birlashsa, frazeologik sinonimiyada bir uya eng ko'pi bilan beshta iboradan tashkil topsa, **maqollar sinonimiyasida bir uyaga 20 tagacha maqol** birlashuvini kuzatish mumkin.

Sinonimiya asosida ma'no munosabati yotadi. Sinonimik uyalardagi ma'nodosh maqollarni kuzatishnatijasida ma'lum bo'ldiki, ba'zi maqollar yagona ma'no doirasida harakat qilsa, boshqalari bir necha ma'noga ega bo'lib,

har qaysi ma`nosi bilan alohida-alohida sinonimik qator tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, bir ma`nolilik va ko`p ma`nolilik nuqtai nazaridan maqollar sinonimiyasini dastlab ikkiga bo`lish mumkin:

1. **Bir ma`noli maqollargina qatnashadigan** ma`nodoshlik **uyalari**. Bunday sinonimik uyalarga taallu`li bo`lgan maqollar orasidagi munosabat sodda bo`lib, ularning ma`nosi to`g`ridan-to`g`ri anglashilib turadi va hech qanday izoh talab qilmaydi:

O`lma, eshagim, arpa pishar.

Muso qo`y keltirar.

O`lma, otim, yoz kelur, yo`ng`ichqa bitar.

O`lmagan qo`l oltin kosadan suv ichar.

Bola, yig`lama, senga oymomani olib beraman.

Ushbu sinonimik uyadagi barcha maqollar nuqul yolg`on so`zlar bilan kishi qo`ynini puch yong`oqqa to`ldiradigan, quruq va`dalar berib yuradigan kishilarga nisbatan iste`zo, kinoya ma`nosida qo`llanadi [47].

2. Ko`p ma`noli maqollar qatnashadigan ma`nodoshlik uyalari. **Bunda ikki hodisani farqlash lozim:**

a) biror maqol ko`p ma`noli bo`lgan ma`nodoshlik uyalari.

O`z gavroning o`zingga qattiq tegmas.

Enasi tepgan qulunning eti og`rimas.

Ot tepkisini ot ko`tarar.

Ho`kizning mug`uzi o`ziga og`irlik qilmas.

Bu maqollar tengqurlar, do`stlar, qon-qarindoshligi bo`lgan kishilar bir-birlarining qattiq-qurum gaplarini ko`taradilar yoxud ko`tarishlari kerak, degan u mumiy ma`no bilan bir sinonimik uyaga birlashadi: "Men ham Shomurod akamning allaqaysi jihatini emas, o`zini yaxshi ko`rardim. Onam qancha yolvordi. Boshingda otang bo`lmasa, ot tepkisi otga o`tmaydi, tog`angning o`g`liga uzataman, deb uvvalo yalindi, ko`nmadi-u" ("Ikki eshik orasi", 223-bet),

**"Ot tepkisini ot ko`tarar"** maqoli yo`qoridagi umumiy ma`nodan tapqari, har kim o`z teng-tushi bilan olishishi, kurashishi, kuchini o`z tengiga ko`rsatishi kerak, degan umumiy ma`noni ham ifodapaydi va bu ma`no vositasida quyidagi maqollar bilan sinonimlik tashkil etadi:

Ot tepkisini ot ko`tarar.

Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan.

O`rdak o`rdak bilan uchar, g`oz g`oz bilan uchar.

Olima M.Sodiqova ham o`z ishida ushbu maqolni ikkinchi ma`nosi bo`yicha. sharhlaydi:

Ot tepkisini ot ko`taradi [50].

b) barcha maqol ko`p ma`noli bo`lgan ma`nodoshlik uyalari.

Bir tomchi suv chumoliga daryo ko`rinar.

Qaldirg`ochga tuynuk - darvoza.

Bular ikki ma`nosida sinonimiya hosil etadi.

**1- ma`no:** ozgina ish ham ko`p va og`ir tuyulib, peshanasini tirishtiradigan, bo`yin tovlaydigan, ishyoqmas, dangasaparga qarata kinoya tarzida ishlatiladi.

**2- ma`no:** ba`zi birovlar mensimaydigan ozgina narsa yoki mablag` kambag`al, o`rtamiyona yashaydigan odamning ko`ziga dunyo bo`lib ko`rinadi.

Maqollarda variantlilik. Maqollarda variantlilik hodisasi ham sinonimiya singari ancha keng tarqalgan. Ma`nosi, asosan bir xil bo`lib, ifoda planida farqlanadigan maqollar o`zaro variantlilikni tashkil etadi.

Mazkur ishda maqollardagi variantlilikni xarakterlovchi asosiy belgilar sifatida quyidagilar olindi:

- 1) turli-tuman o`zgartishlar tufayli biri ikkinchisidan o`sib chiqqan bo`lishi, hammasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi shart;
- 2) asosida ayni bir obraz yotishi lozim;
- 3) ularning barchasi ayni bir ma`noni anglatishi kerak (Ular o`zaro ma`noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, uslubiy belgilarida farq qilishi mumkin);

4) leksik tarkibi juda yaqin, o`xshash bo`lishi darkor.

Xullas, variantlanish tufayli bir maqol boshqa maqolga aylanmaydi, bir maqolga xos obraz birligi, ma`no birligi saqlanadi. Variantlanish natijasida yuz beradigan o`zgarishlar maqollarga xos yaxlitlikni emirmaydi, parchalamaydi, balki maqolga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo`l qo`ygan darajada ega bo`ladi.

Maqollarda variantlilik hodisasini kuzatish asosida ular quyidagicha guruhlanishi mumkin:

1. Leksik variantlar.
2. Grammatik variantlar.

Leksik variantlar maqol tarkibidagi so`z yoki so`zlarning o`zgarishi bilan: E, bosh omon bo`lsa, duppi topiladi –

Bosh omon bo`lsa, mol topiladi;

Echkiga jon qayg`usi, qassobga moy qayg`usi –

Echkiga jon, qassobga moy qayg`usi;

Pichok o`z sopini kesmas –

Pichok qancha o`tkir bo`lsa ham o`z sopini kesmas kabi grammatik variantlar esa maqol tarkibining grammatik o`zgarishi bilan:

Qurbaqani bossa, vaq etadi –

Qurbaqani bossangiz vaq deydi –

Bossang, qurbaqa ham vaq etadi;

Xatga tushding, o`tga tushding –

Xatga tushdingmi, utga tushding;

Chiqqan qiz chig`irikdan tashqarida –

Chiqqan qiz chiyriqdan tashqari;

Osmon uzoq, yer qattiq –

Yer qattiq, osmon uzoq yuzaga keladi.

Ba`zan ayni vaqtda ham leksik tarkib, ham grammatik tarkib o`zgaradi:

O`g`ri o`g`rini qorong`ida topadi –

O`g`ri o`g`ri bilan qorong`i kechada topishadi –

O`g`ri o`g`rini qorong`ida ham taniydi.

Bunday o`zgarish bilan hosil bo`lgan variant leksik- grammatik variant deb yuritiladi. Bu tur yuqoridagi ikki turning xususiyatlarini birlashtiradi.

4-§ Maqollarning uslubiy vazifalari

Maqollar publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda va ayniqsa, badiiy asarlarda keng qoʻllanadi. Ular personajlar nutqiy tavsifida, nutqning uslubiy taʼsirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqollarning "uslubiy vazifalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari "tabiiy" boʻlib, maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual xarakterga ega boʻlib, u yoki bu soʻz sanʼatkorining estetik maqsadi, xohish-irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir. Shulardan birinchisini maqollarning lisoniy (uzual) uslubiy vazifalari deb, keyingilarini esa nutqiy (okkazional) uslubiy vazifalari deb nomlash mumkin" [29].

Maqollarning uzual uslubiy vazifalari. Bunday vazifalar maqollar uchun doimiy boʻlib, ularning ichki tabiatidan kelib chiqadi va har qanday matnda ham reallashadi. Maqollarning uzual uslubiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Predikativ vazifa. Maqollar koinot qonuniyatlarini kuzatish turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarning qisqa va mazmundor ifodasi boʻlib, majozga asoslangan boʻladi.

Masalan, *"Qoʻshning koʻr boʻlsa, koʻzingni qis"* maqoli tarkibidagi soʻzlarni hech kim toʻgʻri maʼnosida tushunmaydi.

Bu maqoldan: *"Atrofingdagi kishilar oʻzini qanday tutsa, sen ham oʻzingni shunday tut, ulardan farqlanib qolma"* degan mazmun anglashiladi.

2. Nutqni ixchamlashtirish vazifasi. Maqollarda turli ijtimoiy munosabatlarning ixcham va loʻnda ifodasi aks etgan boʻladi. Xalq maqollaridagi ixchamlik, loʻndalik, hayratomuz mantiqiy izchillik hamma vaqt kishilarni oʻziga maftun etib keladi, yozuvchi va notiqclarimiz uchun esa beqiyos xazina manbai hisoblanadi. Maqollarning qisqargan, ellipsisga uchragan shakllari ham nutqda ixchamlik va obrazlilik uchun xizmat qiladi.

3. Obrazli ifodalash vazifasi. Maqollar fikrni lo`nda, aniq ifodalash bilan birga obrazli tarzda bayon etishda ham nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Shu bois: "So`z ko`rki - maqol", -deydi dono xalqimiz. Chindan ham har biri tilimiz ko`rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini xayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan badiiyat qatralari-maqollar - ona tilimizning tasviriyligini rang-barang obrazlarda bera olishi bilan ham go`zaldir:

Ohistaxonni yana bir narsa uylantirdi, sud`yaga-ku uchrashishi qat`iy. Lekin qaerda uchrashadi - ishxonasida ko`rishgani ma`qulmi yo uyiga bora qolsinmi? Ishxonasi tuzuk. Tag`in xotini "unaqalardan" (yengilroq demoqchi) bo`lsa, baloga qolasan. Sinamagan otning sirtidan o`tib bo`ladimi! ("Bir kecha fojiasi", 104-bet.)

4. Baholash vazifasi. Maqollar uchun biror predmet yoki voqea-hodisa haqida hukm ifodalash bilan birga, ularga salbiy yoki ijobiy baho berish vazifasi ham xosdir. Baho vazifali maqollar badiiy asarlarda faol xarakterlovchi vositadir. Ular yordamida turli voqea-hodisalarga, predmetlarga bo`lgan muallif munosabati ifodalanadi, bir personaj ikkinchisini ana shunday maqollar yordamida ham tavsiflaydi:

- Qanchalar oson-a sizga! - dedi Ismoilov Rustamovga istehzoli tikilib. - Qanchalar oson! Nima desangiz o`qadi: qulingizdamiz. Og`zi qiyshiq bo`lsa ham boyning o`g`li gapirsin... (Girdob", 357-bet.) «

5. Emotsional vazifa. O`zbek tili maqollarining katta guruhi faqat asosiy ma`noni ifodalab qolmasdan, balki so`zlovchining hayratlanishi, koyishi, minnatdorchiligi, cho`chishi, afsuslanishi, tanbehi, jirkanishi, shodligi, g`azabi, qo`rquvi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. Maqollar ma`noda quyidagi ma`no nozikliklariga ega bo`lishi mumkin:

a) zavqlanish, xayrixohlikni ifodalaydi: Xizrni yo`qlagan uni ko`rar;

b) zorlanish ottenkasi ifodalanadi: Kambag`alni ot ustida it qopadi;

v) tanbeh, ogohlantirish, o`kinch, jirkanish ottenkalari ifodalanadi: Qozonga yaqin yursang, qorasi yo`qar va b.

Maqollarning okkazional uslubiy vazifalari. Bunday vazifa maqollarning uzual qo`llanishidan farqli o`laroq faqat muayyan matnlardagina ro`yobga chiqadi. Maqollarning okkazional uslubiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

**1.Sarlavha bo`lish vazifasi.** Xalq maqollari yozuvchilar tomonidan asarlarning nomi sifatida qo`llanadi. Masalan, Odil Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa...", Shuxratning "Oltin zanglamas", O`.Hoshimovning "Hyp borki, soya bor" romanlari maqollar bilan nomlangan. Asarning boblari, gazeta yoki jurnal rubrikalari ham maqollar bilan nomlanishi mumkin.

**2. Epigraf bo`lish vazifasi.** Adabiyotimizda ayrim mualliflar maqollarni epigraf sifatida ishlatib, o`z maqsadlari va asar g`oyasini o`quvchiga epigraf - maqol bilan anglatadilar. O`zining bir necha hikoyalarida epigraf - maqollar ishlatib alohida mahorat ko`rsatgan yozuvchilardan biri A.Qahhordir. "Otning o`limi - itning bayrami" ("O`g`ri"), "Zo`ri behuda miyon meshikanad" ("To`yda aza") epigraflari yozuvchi hikoyalarida mazmun bilan chambarchas bog`langan bo`lib, asar g`oyasini ishonarli qilib ochib berishga xizmat qilgan.

**3. Asar mazmuniga asos bo`lish vazifasi.** Ko`pgina asarlarning syujeti biror maqol asosiga ko`riladi. "Yolg`onchining rost so`zi ham yolg`on bo`lur" maqoli A.Navoiyning "Yolg`onchi", "Yog`ochning bo`shini qurt yeydi" maqoli I.A.Krilovning "Bo`ri bilan qo`zichoq" masallari uchun asos bo`lgan.

**4.Ta`sirchanlik hosil qilish vazifasi.** Maqollar matn tarkibida ba`zan oddiy gaplar bilan yonma-yon kelib, gap ifodalab kelgan ma`noni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin:

Qishloqqa chiqib sudxo`rlik havosiga tushib, o`z pulini kuydirib qaytgan bir necha shaharlikni ko`rganman, qishloq xalqidan foydalanish uchun qishloqi bo`lish kerak, "tuya gushti uchun it tishi kerak" deyдилar ("Sudxo`rning o`limi", 55-bet).

Bir sinonimik qatorga mansub, lekin ma'naviy yoki uslubiy jihatdan farqlanuvchi ikki maqol yonma-yon qo'llanganda ham ta'sirchanlik hosil bo'ladi: Bashorat. "Ichingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga" - yaxshimanmi, yomonmanmi - oyimning farzandiman. Oyim mendan tonmaydilar. "Qo'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tipratikon yumshog'im deyar ekan", "Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga" ("Kelinlar ko'zg'oloni", 267-bet).

5. Asar yoki bobniig boshlaimasi bo'lish vazifasi. Maqollar badiiy asarning yoki asardagi biror bobning boshlanmasi tarzida ham qo'llanishi mumkin. Masalan, yozuvchi A.Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romani quyidagicha boshlanadi: "-Qazisan, qartasan, axir zotingga tortasan! -dedi kampir omborni qo'lflayotib.

6.Satira va yumor hosil qilish vazifasi. Yumor va satira yaratish vositalari orasida maqollar alohida o'rin to'tadi. Bu esa maqollarning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina maqollarning ma'no tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari mujassam. Maqollar personaj nutqini, uning so'zlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani ta'kidlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Sudxo'ring o'limi" asarida "Ayiqni yo'qlasang, tayoqni qo'lingga ol" maqoli vositasida xuddi shunday kulgili vaziyat yuzaga keltirilgan:

- Mening sizga bir zarur ishim bor edi, shu kun qishloqdan siz bilan uchrashish uchun kelib edim...

